

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX FAKULTETI**

**132- guruhi talabasi Hojiyev Rasulbek Boynazar o`g`lining  
5111600 “Milliy g`oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo`nalishi  
bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIV ISHI**

**Mavzu: Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o`rnini**

**Ilmiy rahbar:**

**katta o`qit. Z. Adilov**

**Urganch 2017 yil**

*I-lova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarix**

(fakultet nomi)

**Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi**  
(kafedra nomi)

**Mavzu: "Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o'rni" mavzusidagi**  
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

**Bajaruvchi:**

**Hojiyev R.**

**Rahbar katta o`qituvchi:**

**Z.Adilov**

**Urganch shahri**

**2017-yil**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarix**

(fakultet nomi)

**Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi**

(kafedra nomi)

**BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO`YICHA  
TOPSHIRIQLAR REJASI:**

**Talaba: Hojiyev Rasulbek**

Universitet rektorining «204 - T § 2»-sonli 11 noyabr 2015-yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “*Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o'rni*” mavzusi tasdiqlangan.

**2. Kafedra majlisining qaroriga binoan. katta o`qituvchi. : Z. Adilov**

bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

**3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** Bitiruv malakaviy ish-Kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

**4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar.** O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

**5. Bitiruv malakaviy ishga \_\_\_\_\_**

---

\_\_\_\_\_ **ilova qilinadi.**

## **Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali**

	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2016 yil dekabr
	Materiallar izlash	2017 yil yanvar
	Ishning kirish qismini tayyorlash	2017 yil fevral
	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va tahlil hilish	2017 yil mart
	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va tahlil hilish	2017 yil aprel
	Ishning xulosasini tayyorlash	2017 yil may
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatini tuzish	2017 yil may

**Bitiruv malakaviy ish rahbari: katta o`qituvchi**

**Z. Adilov**

**Bajaruvchi talaba:**

**Hojiyev Rasulbek**

2016 yil «9» dekabr

Topshiriqlar rejasini va jadvali kafedra majlisida 2016 yil tasdiqlandi  
(``8``- sonli bayonnomma)

**Kafedra mudiri:**

Sheripov U.\_\_\_\_\_

## **BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI**

**Talaba: Hojiyev Rasulbek**

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o`rni” mavzusi**

**Bitiruv malakaviy ish hajmi:** 86 sahifa.

**Tushuntirish qismi:** 72 sahifa.

**Mavzuning dolzarbliji:** Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyat muhim o’rin tutadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan ma’lumki, mamlakat taraqqiyotini ta’minlashda intellektual salohiyatning o`rni alohida ahamiyatga ega. Chunki mavjud tabiiy boyliklar va iqtisodiy imkoniyatlar o`z-o`zidan mamlakat taraqqiyotini ta’minlash omiliga aylanavermaydi. Buning uchun ularni moddiy kuchga aylantirishga qodir intellektual salohiyat kerak.

Intellektual salohiyat keng ma’noda jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi, aqliy mehnat bilan shug`ullanuvchi ijtimoiy guruhlar, ularning bilim darajasi, aqliy qobiliyati, to`plangan ilmiy bilimlar, kashfiyotlar, to`plangan bilimlarni ishlab chiqarishga va ijtimoiy hayotga yetkazish vositalari hamda imkoniyatlarini belgilovchi ma’naviy, ma’rifiy va amaliy kuch-quvvatdir.

Ta’lim tarbiya jarayonida barkamol avlodni milliy va umuminsoniy oltin merosimizdan bebahra qoldirmaslik bugunnning dolzarb masalalaridandir. Mustaqil yurtimizni himoya qiladigan kelgusida yurt qayg`usi, Vatan osoyishtaligi, Vatan ravnaqi va kelajagi buyuk davlatning kelgusidagi taqdirini hal etadiganlar bular allbatta keljak avlodlardir. Shu bois yoshlarimizni ilmiy dunyoqarashi boy, faol, fidoiy, sinchkov, mustahkam iroda egasi etib tarbiyalashdek mashaqqatli va sharafli vazifa o`qituvchilar zimmasiga tushadi.

**Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi:** Rasulbek

Hojiyev barcha fanlarni to`la o`zlashtirib, ularni amaliyotga qo'llash ko`nikmasiga ega.

**Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari.** Rasulbek Hojiyev o`zi mustaqil ishlay oladi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O`zining mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomulasi yaxshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari.** Ishda **O'zbekistondagi jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish** jarayoni hamda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati aniq statistik ma'lumotlardan foydalilanigan holda har tomonlama chuqr yoritib berilgan.

**Bitiruv malakaviy ishga qo`yilgan talablarning bajarilishi darajasi.**

Ish to`la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin

**Bitiruv malakaviy ish rahbari:**

**Z.Y.Adilov**

( f.i.sh.)

2017 yil «25» may

**Urganch davlat universiteti**

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'naliшining

**Bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z**

**Malakaviy ish mavzusi: Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o'rni**

**Malakaviy ishning hajmi.** 15718 so`zdan iborat

**a) tushuntirish qismi varaqlar soni:** 72 sahifadan iborat

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbliги va berilgan topshiriqqa mosligi.** Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqga mosdir.

**Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismi va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati.** Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o`z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

**Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi.** Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi.** Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ijobjiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari.** Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar.** Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

**Taqrizchi:** \_\_\_\_\_ TATU Urganch filiali o'qituvchisi Otabek Saparbayev  
(imzo) (mansabi, ish-joyi, darajasi, f.i.sh.)

2017 yil «31» may

### **Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari**

	<b>Baholanadigan bo'limlar</b>	<b>Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida</b>
	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
	“Xulosa” himsida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalananish	10
	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

**Eslatma:** Har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi yo'naliشining bitiruvchisi "*Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o'rni*" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «\_\_\_\_\_» 2017 yil «\_\_\_\_\_iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

**Davlat attestattsya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.**

<b>Nº</b>	<b>Baholanadigan bo'limlar</b>	<b>Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida</b>	<b>Komissiya belgilagan foiz</b>
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbliji, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza	10	

(axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi		
Jami:		

**Davlat attestattsiya komissiyasi majlisining qarori: “*Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o’rni*” mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun \_\_\_\_\_ lik o’zlashtirish ko`rsatkichi belgilanish va «\_\_\_\_\_» deb baholansin.**

2.\_\_\_\_\_

DAK raisi:\_\_\_\_\_

A’zolari:\_\_\_\_\_

2017 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasи

Bitiruv malakaviy ish \_\_\_\_\_ sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

**Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Hojiyev R.**

**Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “*Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o’rni*”**

**Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi:** katta o`qit. Z.Y.Adilov.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017 yil «29» mayda o’tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib TATU Urganch filiali o`qituvchisi Otabek Saparbayev tayinlandi.

**Kafedra mudiri:** Sheripov U.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

**Fakultet dekani:**

t.f.n. O.Shixov

Urganch davlat universiteti  
Tarix fakulteti  
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi kafedrasи  
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi yo'nalishi 5111600 ta'lif  
bakalavr  
Tasdiqlayman  
fakultet dekani \_\_\_\_\_ t.f.n.O.Shixov

“\_\_\_” 2017 y.

### **BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ**

**Talaba : Hojiyev Rasulbek**

**1.Ishning mavzusi:** “*Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o'rni*”

«11 noyabr 2015 yil universitet rektorining 204-T § 2 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**2. Ishni topshirish muddati:** “\_\_\_” 2017 y.

**3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yhati.**

1. Ахмедов Б. Илм-фан халқ ва мамлакатга хизмат қилсин // Мулоқот. Тошкент, 2012. - №11-12. - Б. 8-9.

2. Ғуломов С. Интеллектуал салоҳият самарадорлиги сари // «Халқ сўзи» газетаси. - Тошкент, 2012йил 9 сентябр. - Б. 1-2.

3. Таълим салоҳиятининг юксалиши // “Маърифат” газетаси. - Тошкент, 2003 йил 12 июл. - Б. 7.

4. Охунова Г. Жамият, таълим ва кадрлар // Жамият ва бошкарув. - Тошкент, 2003. - №1. - Б. 17-18.

5. Маҳкамова Н. Миллий зиёлилар шаклланиши // Мулоқот. -Тошкент, 2003. - №1. - Б. 22.

**4.Ishning maqsadi:** Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishda milliy g'oyaning o'rnini o'rGANISH va uni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**5. Chizma materiallar ro'yhati:** \_\_\_\_\_

**6.Maslahatchilar:** \_\_\_\_\_

Bo`limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq q. qildi
Intellektual salohiyat tushunchasi, sotsial ildiz va uning mohiyati	fal.f.d. M.Xajiyeva	2.03.2017	17.03.2017
Intellektual salohiyatni shakllantirish manbalari	fal.f.n U.Do`schenova	18.03.2017	24.03.2017
Jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	t.f.n. U.Sheripov	25.03.2017	30.03.2017
Ishlab chiqarish va intellektual salohiyat munosabatlari: o`zaro ta'siri va rivojlanish tendensiyalari	U.Xajiyev	3.04.2017	14.04.2017
<b>Kadrlar tayyorlash va joy-joyiga qo`yish siyosatining namoyon bo`lish xususiyatlari</b>	B.Jumaniyozov	15.04.2017	22.04.2017
Fan, texnika va texnologiyalarni rivojlanishida intellektual salohiyatning imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati	J.Davletov	23.04.2017	30.04.2017

**Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni:** Otabek Saparboyev  
TATU Urganch filiali o`qituvchisi

**7. Ilmiy rahbar:**

**Z. Adilov**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**BMI bajaruvchi talaba:**

**R. Hojiyev**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Kafedra mudiri:**

**t.f.n. U.Sheripov**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

# M U N D A R I J A

**Kirish .....**.....3-9

## **I. BOB JAMIYAT INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARINI O`RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Intellektual salohiyat tushunchasi, sotsial ildizi va uning mohiyati.....	10-18
1.2. Intellektual salohiyatni shakllantirish manbalari.....	19-30
1.3. Jamiatning intellektual salohiyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli.....	31-39

## **II. BOB INTELLEKTUAL SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

2.1. Ishlab chiqarish va intellektual salohiyat munosabatlari: o`zaro ta'siri va rivojlanish tendensiyalari.....	40-49
<b>2.2. Kadrlar tayyorlash va joy-joyiga qo'yish siyosatining namoyon bo`lish xususiyatlari.....</b>	<b>50- 56</b>
2.3. Fan, texnika va texnologiyalarni rivojlanishida intellektual salohiyatning imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati.....	57-64
<b>Xulosa.....</b>	<b>65-70</b>
<b>Foydalanilgan manba va adabiyotlar.....</b>	<b>71-73</b>

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Ta’lim tarbiya jarayonida barkamol avlodni milliy va umuminsoniy oltin merosimizdan bebahra qoldirmaslik bugunnning dolzarb masalalaridandir. Mustaqil yurtimizni himoya qiladigan kelgusida yurt qayg`usi, Vatan osoyishtaligi, Vatan ravnaqi va kelajagi buyuk davlatning kelgusidagi taqdirini hal etadiganlar bular allbatta kelajak avlodlardir. Shu bois yoshlarimizni ilmiy dunyoqarashi boy, faol, fidoiy, sinchkov, mustahkam iroda egasi etib tarbiyalashdek mashaqqatli va sharaflı vazifa o`qituvchilar zimmasiga tushadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi Farmonining 4-bandiga muvofiq ijtimoiy sohani rivojlantirish, ayniqsa ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. Ta’lim tizimini rivojlantirish bo`yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilab berildi: “Ta’lim va o`qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oily ta’lim muassalarining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya rag`batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oily o`quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish”.<sup>1</sup>

Xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo`ylik, or- nomus, sharm- hayo, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va boshqa shu kabi yuksak insoniy fazilatlar, eng avvallo oilada shakllangan. «Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o`zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor,- degan edilar birinchi Birinchi Prezidentimiz I. Karimov,- din-u diyonatli xonodon oqsoqqollaridan so`rasangiz, ularni lo`nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo`yish, yaxshi muallim qo`liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasb- hunarli qilish, boshini ikki, uyli-joyli qilish. Bugun ana shunday oljanob an'analar qaytadan mustahkam qaror topishi va rivojlanishi uchun istiqlol sharofati tufayli eng qulay

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi Farmoni. // Xalq so`zi. 2017 yil 8 fevral. 28 son

muhit yaratildi».<sup>1</sup>

Jahoning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan ma'lumki, mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda intellektual salohiyatning o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki mavjud tabiiy boyliklar va iqtisodiy imkoniyatlar o'z-o'zidan mamlakat taraqqiyotini ta'minlash omiliga aylanavermaydi. Buning uchun ularni moddiy kuchga aylantirishga qodir intellektual salohiyat kerak.

Bunday salohiyat va imkoniyat mamlakat mustaqilligi tufayli qo'lga kiritiladi. Mustamlaka holatida intellektual salohiyatni shakllantirish, undan mavjud tabiiy boyliklarni o'zlashtirishda samarali foydalanish imkoniyati ham cheklangan bo'ladi. O'zbekiston sobiq sho'rolar hukmronligi sharoitida ana shunday qaramlik holatida edi. Uzoq yillar davomida kurash olib borilib, mustaqillik qo'lga kiritildi.

Shu tariqa O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. U, bir tomonidan, sobiq tuzum davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohada to'planib kelgan muammolarni hal qilishni, ikkinchi tomonidan, mamlakatni chinakam taraqqiyotga olib boruvchi demokratik tamoyillar va bozor munosabatlarini shakllantirish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Ularni amalga oshirish orqali O'zbekiston jahoning taraqqiy mamlakatlari qatorida munosib o'rin egallashi mumkin edi. Buning uchun esa yillar davomida shakllangan intellektual salohiyatdan samarali foydalanish va ayni paytda zamon talabiga javob beradigan yangicha tafakkurni shakllantirish vazifasi belgilab olindi. Uning negizini esa zamon talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimi tashkil qiladi. Bu haqda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: «...qayerda maktab-maorif masalasi jamiyatning doimiy e'tibor markazida tursa, qaysi xalq, qaysi millat yosh avlod tarbiyasi ustida uzoqni ko'zlab tinimsiz ish olib borsa, shu yurtning farzandlari elning chinakam g'ururi va iftixoriga aylanadi».<sup>2</sup> Ammo bu vazifani amalga oshirish oson ish emas, chunki, uning ko'lami katta ekanligini taraqqiyotimizning bugungi tajribalari ko'rsatmoqda. Ana shunday vazifalardan biri jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishning imkoniyatlarini nazariy

<sup>1</sup>Birinchi Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2005. 23-yanvar.

<sup>2</sup>Karimov I.A. O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga // «Xalq so'zi» gazetasi, 2012 yil 30 sentabr, – B.1.

jihatdan har tomonlama tahlil qilish, o`rganish va ular asosida tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqish hamda bu jarayonga salbiy ta`sir etuvchi omillarni bartaraf etish «mexanizm»laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o`tish sharoitida ularning mamlakat taraqqiyotidagi belgilovchi o`rnini va ahamiyatini aniqlab olish, ma`no-mazmunini ochib berish, tarkibiy qismlarini o`rganish ularning ta`sir etuvchi imkoniyatlarini aniqlash amaliy ahamiyatga molikdir.

Shuning bilan bir qatorda, o`tish davrida kadrlar siyosatidagi qator vazifalarning biri sifatida intellektual salohiyatning yadrosini tashkil qiluvchi zamon talabiga javob beraoladigan kadrlarning yangi avlodini tayyorlash va ulardan samarali foydalanish zarurligini ilmiy asoslashni ham taqazo qiladi. Kadrlarning mamlakatimiz taraqqiyotidagi o`rni haqida bиринчи Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edilar: «...aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o`rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog`liq».<sup>1</sup>

Kadrlar jamiyat taraqqiyotida keng qamrovli omil hisoblanib, intellektual salohiyat tizimida alohida ahamiyatga ega bo`ladi. Chunki kadrlar o`z salohiyati bilan ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqaruvni ratsional rivojlantirishda asosiy kuch hisoblanadi. Ular mamlakat iqtisodiyotining turli sohalariga yangi texnika, texnologiya va kashfiyotlarni joriy etishda hal qiluvchi halqadir. Kadrlar xalqimizning yaratuvchanlik faoliyatini jadallashtirib, mamlakatning iqtisodiy qudratini yuksaltiradi. Shuning uchun davlatimiz mustaqillikka erishgan kunlaridanoq intellektual salohiyatni oshirishning muhim qismi bo`lgan kadrlar tayyorlash siyosatiga alohida e`tibor berib kelmoqda. Ayniqsa, uning negizi bo`lgan ta`lim tizimini isloh qilish strategik vazifa sifatida belgilanishi va uning amalga oshirilayotganligi taraqqiyotimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta`lim tizimi oldiga ijtimoiy-pedagogik muammolarni ijobjiy hal qilishning ilmiy-pedagogik

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда // Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан қурамиз. Т.7. - Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - Б. 381.

shart-sharoitlarini aniqlash kabi dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Bu vazifalarning yechimi amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligiga bog'liq.

Mamlakatimizda oliy o'quv yurtlarida ilmiy tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish jamiyat rivojlanishining muhim omili ekanligiga alohida urg'u berib kelmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti uchun zarur, dolzarb muammolarning hal etilishiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ushbu jarayonning asosiy maqsadlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Yoshlar yili" davlat dasturi mazmunida ham har tomonlama etuk ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashning mohiyati keng yoritib berilgan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, oliy o'quv yurtlarida tahsil oluvchilarning ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, madaniyatli va o'z e'tiqodiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida urg'u berilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning ilmiy elitasi bilan uchrashuvda intellektual salohiyatning jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni haqida shunday fikrlarni bildirdi: "Islohatlarni yetakchi olimlar bilan bamaslahat amalga oshirish, malakali kadrlarni tayyorlash, ishlab chiqarish sohalariga ilm - fan yutuqlari, yangi texnologiyalar, novatorlik g'oyalarini tadbiq etishda ilmiy elitaning boy tajribasidan foydalanishimiz kerak. Umuman, davlatning boyligi uning oltinlari, neft va gazi, tabiiy resurslari bilan emas, balki olim va ziyolilari, ularning ilmiy salohiyati bilan o'lchanadi. O'zbekistonda esa bu borada salohiyat katta".<sup>1</sup>

Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning olimlar bilan uchrashuvdag'i ma'ruzasi// «Xalq so'zi» gazetasi, 2016 yil 31 dekabr, – B.1.

dasturi” bugungi kunda jahon miqyosida e’tirof etildi va o’zining samarasini bermoqda.

Uch bosqichda amaliyatga tatbiq etilishi ko’zda tutilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 2001 yilda yakuniga etgan dastlabki bosqichida erishilgan istiqbolli natijalar keyingi davrlarda uni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratib berdi. Jumladan, kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyati saqlab qolindi, tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, me’yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy, moddiy-ma’naviy shart-sharoitlar yaratildi.

Milliy dasturni to’liq ro’yobga chiqarishning ikkinchi bosqichida ko’zda tutilganidek, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda oliy ta’lim jarayoni mazmuniga aniqliklar kiritish zarurati ham yuzaga keldi.

Jamiyat a’zolarining ijtimoiy faolligi ularning ilmiy salohiyati hamda ilmiy dunyoqarashi bilan belgilanadi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog’liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to’g’risidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy jihatdan ta’minlash infrastrukturasini vujudga keltirish, mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasini tashkil etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Bunday dolzarb vazifalar tizimida bo’lajak o’qituvchi kadrlarni ilmiy faoliyatga tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta’lim sohasidagi islohotlar faqat malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilib qolmay, balki fuqarolik jamiyatining ilmiy salohiyatini rivojlantirishga ham qaratilgandir.

***Mavzuning o’rganilish darajasi.*** Bu mavzu bo’yicha ko’pgina olimlarimiz tadqiqot ishlari olib borganlar. Mustaqillik yillarda bu borada O’zbekistonda ham bir qator faylasuflar va tarixchilar mazkur masalani o’rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. Jumladan, A. K. Valiev<sup>1</sup>, X. Xonazarov<sup>1</sup>, K.

---

<sup>1</sup> Валиев А. К. Проблемы развития духовной культуры // Ощественные науки в Узбекистане.2010. - № 3-4.

Kasanbaev<sup>2</sup>, A. S. Achildiev<sup>3</sup>, T. Sultonov<sup>4</sup>, O. U. Ibragimov<sup>5</sup>, A. A. Berdishukurov<sup>6</sup> va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

### ***Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:***

Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishda milliy g'oyaning o'rmini o'rganish va uni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

### ***Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:***

Jamiyatning intellektual salohiyati mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi, ularning o'zaro munosabatini tahlil qilish;

Ziyolilar ijtimoiy qatlami jamiyat intellektual salohiyatining muhim tarkibi va bozor iqtisodiyotiga o'tishda asosiy harakatga keltiruvchi kuch ekanini asoslash;

Intellektual "elita" tushunchasini aniqlash va uni ilmiy iste'molga kiritish;

Mustaqillik sharoitida tanlangan iqtisodiy-siyosiy taraqqiyot yo'lida ishlab chiqarishning intellektual salohiyati roli va ahamiyatini ochib berish;

***Bitiruv malakaviy ishning obekti.*** Davlat siyosatida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va ulardan foydalanish tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi.

***Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.*** Ishning asosiy nazariy va uslubiy asosiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, davlat mustaqilligini mustahkamlash borasidagi, madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirish, oliy o'quv yurtlarini qayta tashkil qilish va yangi o'quv yurtlarini tuzish to'g'risidagi qonunlar va farmonlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog'liq fikrlari ilgari surilgan asarlari manba bo'lib xizmat qildi.

### ***Bitiruv malakaviy ishning ahamiyati.***

<sup>1</sup> Хоназаров .Х. Ижтимоий фалсафа // Мулоқот. 1993, № 7-8.; шу муаллиф. Мафкура истиқоллининг назарий асоси // Мулоқот, 1994, № 1-2.

<sup>2</sup> Касанбаев К. Бит как важнейший компонент национальной культуры: - Ташкент: 1994.

<sup>3</sup> Ачилдиев А.С. Проблема взаимодействия национального самосознания и национальной культуры: Ташкент: 1994.

<sup>4</sup> Султанов Т. Проблемы развития интеллектуального потенциала независимой Республики Узбекистана (на примере развития научно-педагогических кадров высшей школы): Дис. канд. филос. наук. - Ташкент: 2010.

<sup>5</sup> Ibragimov O.U. O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati yangi tizimini shakllantirish va amalga oshirish muammolar. — Toshkent: 2012.; shu muallif. Mustaqillik va kadrlar siyosati // Muloqot. 2011. - №1.

<sup>6</sup> Berdishukurov A.A. Ziyolilarning demokratik jamiyat qurish jarayonida fuqarolar siyosiy madaniyatini o'stirishdagi roli: Fal. fan. nom. dis. — Toshkent: 2012.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, yoshlar intellektual salohiyatini oshirishda milliy g`oyaning o`rni to`g`risida ko`plab ma'lumotlar to`plash hamda dars va sinfdan tashqari jarayonlarda barkamol avlodning ma'naviyati va axloqini rivojlantirishda ular tasavvurini ma'naviy merosimiz, sharqona ma'naviyatimizga oid g`oyalar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi.**

Bitiruv malakaviy ish “Kirish”, oltita paragrafni o`z ichiga olgan ikki bob, “Xulosa” hamda “Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati”dan iborat. Matnning umumiylajmi 72 betni tashkil etadi.

# **I. BOB JAMIYAT INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTI-RISH MUAMMOLARINI O`RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Intellektual salohiyat tushunchasi, sotsial ildizi va uning mohiyati**

Intellektual atamasining etimologik asosi lotin tili bo`lib, o`zbek tiliga rus tilidan kirib kelgan. Bu so`zning o`zagi intellekt so`zidir. Intellekt so`zi o`zbek tiliga tarjima qilinganda «aql, idrok, zakovat; aqliy jihatdan yetuklik»,<sup>1</sup> — ma`nolarini bildiradi. Mehnat, ishlab chiqarish bilan bog`liq holatda bu so`zga quyidagicha ta`rif berilganligini ko`rishimiz mumkin: «Intellekt, olingan ma'lumotlarni (mehnat predmetini) tartibga solish va oqilona umumlashtirishni o`zida ifodalaydigan inson qobiliyati tizimi bo`lib, u o`z egasidan begonalashmagan va intellektual ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida namoyon bo`ladi».<sup>2</sup> O`zbekiston milliy ensiklopediyasida intellekt so`ziga bundan ham kengroq ta`rif beriladi, ya`ni «insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o`zgartirish, fikrlash, o`qish-o`rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqeа hodisalarini oldindan ko`ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so`zlash va hokazo psixik jarayonlar kiradi».<sup>3</sup> Intellektual so`zi esa «aql-idrok egasi, aql-zakovatli odam»,<sup>4</sup> «Aql zakovat egasiga oid; aqliy»,<sup>5</sup> — ma`nolarida ishlatiladi. Demak, intellektual so`zi aqliy faoliyat, bilim saviyasi bilan bog`liq atama hisoblanadi. «Salohiyat» tushunchasi esa, lotincha «potention» so`ziga mos kelib, o`zbek tilida «kuch- qudrat, imkoniyat»,<sup>6</sup> «qobiliyat, iqtidor»,<sup>7</sup> - ma`nolarini anglatadi. «Keng ma`noda esa jamiyat, davlat va shaxsning turli maqsad va rejalarini amalga oshirish bilan bog`liq bo`lgan faoliyatlarini ta`minlovchi

<sup>1</sup> Русча-ўзбекча лугат. 2 Т. - Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редаксияси, 1983. Т.1. - Б. 394.

<sup>2</sup> Иншаков О.В., Поляков П.В., Ходикин А.С. Интеллектуальный фактор инновационной деятельности. Волгоград: ВолГУ, 2003. - С. 10.

<sup>3</sup> O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 14 Т.- Toshkent: «O`zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2002. Т.4. - В. 179.

<sup>4</sup> Русча-ўзбекча лугат. 2 Т. - Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редаксияси, 1983. Т.1. - Б. 394.

<sup>5</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 Т. - М.: Рус тили, 1981. Т.1. - Б. 330.

<sup>6</sup> Русча-ўзбекча лугат. 2 Т. - Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редаксияси, 1983. Т.1. - Б. 163.

<sup>7</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 Т. - М.: Рус тили, 1981. Т.1. - Б. 16.

manbalar, zaxiralar yig`indisidir»,<sup>1</sup> — deb ta'kidlaydi tadqiqotchi X.Jumaniyozov. Shu ma'noda, falsafiy, siyosiy, badiiy adabiyotlarda jamiyat, davlat va insonga nisbatan «iqtisodiy salohiyat», «ma'naviy- mafkuraviy salohiyat», «intellektual salohiyat» iboralari ishlatiladi. Intellektual salohiyat atamasini yakka shaxsga qo`llaganda aql zakovat egasi ma'nosida ishlatishimiz mumkin. Ukrainalik tadqiqotchi V.V.Proshak esa intellektual salohiyat atamasini jamiyatga nisbatan qo`llab shunday ta'rif beradi: «...Jamiyatning intellektual salohiyati (JIS) — bu individlarning intellektual vositalarni moddiylashtirib foydalanishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo`lgan erishilgan va ijod qilingan yangi bilimlarni o`zlashtirishi imkoniyatini beruvchi kasbiy ma'lumoti darajasidagi ijodkorlik qobiliyatlari majmuidir».<sup>2</sup>

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda jamiyatning intellektual salohiyati deyilganda aksariyat hollarda ziyolilar tushuniladi.<sup>3</sup> Bizningcha, bu atamani jamiyatga nisbatan qo`llaganimizda faqat aqliy mehnat bilan band ijtimoiy qatlam - ziyolilar va ularning qobiliyati bilan cheklanib qola olmaymiz. Jamiyatning yoki mamlakatning intellektual salohiyatiga faqat ziyolilar, ma'lumoti darjasasi, ijodkorlik qobiliyati kiritilsa, bir tomonlama yondashuv bo`lib qoladi. Chunki, tadqiqotchi X.Jumaniyozovning fikriga qo`shiladigan bo`lsak, salohiyat tushunchasi jamiyatning «faoliyatlarini ta'minlovchi manbalar, zaxiralar yig`indisini» ham bildiradi. Aynan intellektual salohiyatni oshirishda yaratilgan ilmiy bilimlar, ta'lim tizimi unga xizmat qiluvchi texnik vositalar, video, audio, kompyuter dasturlari ham xizmat qiladi. Ularni kimlardir yaratgan bo`lsa-da, bunday texnik vositalar aqliy mehnatga yordam bermoqda. Hatto o`qitish borasida o`qituvchisiz yoki masofaviy o`qitish dasturlari paydo bo`ldi. Intellektual salohiyatni keng va tor ma'noda qarash maqsadga muvofiqdир. Tor ma'noda shaxsga daxldor bo`lgan jihatlari tushuniladi. Keng ma'noda jamiyat, xalq millatga

<sup>1</sup> Jumaniyozov X. Mustaqillik va milliy rivojlanishning ma'naviy-mafkuraviy salohiyatini shakllantirish muam-molari: Siyos. fan. nom. . dis. avtoref. - Toshkent: 2000. — B.15.

<sup>2</sup> Прошак В.В. . Интеллектуалний потенциал Украшни в улмовах ринково! Трансформатсилик экономики: Автореф. дис. ... канд. екон. наук. Лвив: 2002. - С. 6.

<sup>3</sup> Султонов Т. Проблеми развития интеллектуального потенциала независимой Республики Узбекистан (На примере развития научно-педагогических кадров вицьшшей школы): Дис. ... канд. филос. наук. - Ташкент: 1995. - С. 27.

daxldor jihatlari nazarda tutiladi. Mavzumizdan kelib chiqqan holda fikr yuritganimizda jamiyat intellektual salohiyati, bizningcha, ziyorilar ijtimoiy qatlamidan ancha keng ma'noni bildiradi, ya'ni uning tarkibiy qismlariga ziyorilar va ular yaratgan ilmiy bilimlar, bu bilimlarni jamiyatga singdirish usullari, vositalari, shuningdek, undan ishlab chiqarishda foydalanishda faol ishtirok etayotgan mutaxassis kadrlar ham kiradi. Bizningcha, jamiyatning intellektual salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Intellektual salohiyat keng ma'noda jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi, aqliy mehnat bilan shug`ullanuvchi ijtimoiy guruqlar, ularning bilim darajasi, aqliy qobiliyati, to`plangan ilmiy bilimlar, kashfiyotlar, to`plangan bilimlarni ishlab chiqarishga va ijtimoiy hayotga yetkazish vositalari hamda imkoniyatlarini belgilovchi ma'naviy, ma'rifiy va amaliy kuch-quvvatdir.

Bu ta'rifga ko`ra jamiyatning intellektual salohiyatini quyidagi tarkibiy kismlarga bo`lish mumkin:

1. Ziyorilar, ularning bilim darajasi, aqliy qobiliyatlari, tafakkuri hamda ularning miqdori.
2. Tarixiy rivojlanish jarayonida mamlakatning o`zida yaratilgan yoki boshqa xalqlardan o`zlashtirilgan ilmiy bilimlar, kashfiyotlar.
3. Mayjud ta'lim tizimi va uning moddiy-texnik bazasi, o`qitish, o`rgatish vositalari va usullari.
4. Ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan shug`ullanuvchi muassasalar va ularning moddiy-texnik bazasi.
5. Ilmiy, texnikaviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, badiiy bilim- larni, axborotlarni jamiyatga etkazib berish vositalari va usullari (ilmiy adabiyotlar va jurnallar, gazetalar, internet aloqalari) kiradi.

Tarbiya orqali singdirilgan xislat va fazilatlarga inson bir umr amal qilib yashashga intiladi. Shuning uchun, Abdulla Avloniy: «...dars oluvchi biluvchi,

tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdur»,<sup>1</sup> — degan edilar. Shu sababli, faqat o`zbek xalqida emas, boshqa ko`pgina xalqlarda ham tarbiya yuksak insoniy qadriyat hisoblanadi. Chunki «...balog`at va bilimlarga, ya`ni rivojlanishga tarbiya va mashq orqali erishiladi».<sup>2</sup> Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tarbiyaning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini ta`kidlab: «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo`lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotga nechog`li faol munosabatda bo`lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog`liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak»,<sup>3</sup> - degan edilar.

Abdulla Avloniy o`zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida tarbiyaga to`xtalib: «Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o`rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o`stirmakdur»,<sup>4</sup> -deydi. Alovida shaxs tarbiyasi orqali shaxs xarakteri, umummilliy tarbiya orqali esa, milliy xarakter shakllantiriladi. Milliy xarakterning mamlakat iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotida ahamiyati nixoyatda katta. XVIII asrda yashagan fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo: «biz tayanishimiz kerak bo`lgan birinchi tamoyil - milliy xarakterdir: har bir xalq milliy xarakterga ega yoki ega bo`lishi lozim; xalqda u bo`lmagan taqdirda ishni unga bunday xarakter berishdan boshlash kerak bo`ladi»,<sup>5</sup> - degan edi Mahmudxo`ja Behbudi o`zining «Padarkush» dramasida qahramoni ziyoli tilidan: «Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo`lidan ketgandek, axloq va obro`yi ham ko`ldan chikar, xatto dini ham zaif bo`lur»,<sup>1</sup> - degan edilar.

XX asrning boshlarida aytilgan ushbu fikrlarning ahamiyati bugungi kunda yanada oshdi.

<sup>1</sup> А. Авлоний Туркий гулистан ёхуд ахлок. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 16.

<sup>2</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: А. Қодирий. Халқ мероси, 1993. - Б. 23.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. // Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан курамиз. Т.7.- Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - Б. 385.

<sup>4</sup> А. Авлоний Туркий гулистан ёхуд ахлок. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 12.

<sup>5</sup> Руссо Ж.Ж. Трактат. - М.: 1969. - С. 268.

Intellektual salohiyatni rivojlantirish va rag`batlantirish kadrlar tayyorlash, ularni joy-joyiga ko`yish, ular dan samarali foydalanishda ham namoyon bo`ladi.

Insoniyat tarixiy rivojlanish bosqichlarida an'anaviy rivojlanish usullaridan ilmiy bilimlarga asoslangan rivojlanishga o`tgan davrda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanish qonuniyatlari, qoidalari muhim belgilarini o`rganish, tahlil qilish bilan birga bu rivojlanishni ta'minlab beruvchi muhim omil bo`lgan jamiyatning intellektual salohiyatini o`rganish, tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, yoshlik davrida olamni bilishga, falsafiy mushohadaga, psixologik tahlilga, mantiqiy fikrlashga ishtiyoq va harakat kuchli bo`ladi. Shu bilan birga, ularda fantaziyaga moyillik ham kuchli bo`ladiki, mana shu fiziologik-psixologik holat tafakkurni rivojlantirish, bilishga intilish, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun muhim omil hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Fan Vatan ravnaqiga xizmat qilsin” nomli asarida: “...Bizning endigi vazifamiz-ma’naviy hayotimizni, ilm-fanimiz faoliyatini, izlanishlarimizni mana shu eski mafkura qoliplaridan xalos etish, kerak bo`lsa, tafakkurimizni mutelik iskanjasidan forig` etishimiz zarur”<sup>1</sup>, - deb ta’kidlagan edi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligining 2007 yil 28 fevraldagи № 37 sonli buyrug`i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish to`g`risida namunaviy nizom”ning 9-bandida oliy ta’lim muassasalarida yoshlar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari quyidagicha belgilangan:

- ta’lim-tarbiya, o`quv va ilmiy tadqiqot jarayonlari integratsiyasini ta’minalash;
- ta’lim jarayonini tashkillashtirishda talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatining turli shakllarini joriy etishni nazarda tutish hamda uning uzviyligi va uzlusizligini ta’minalash;

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Фан Ватан равнақига хизмат қилсин. II жилд. -Т.: Ўзбекистон, 1996. - 79-80-бетлар.

- yoshlarning ilmiy-ijodiy faoliyatini ishtirokchilarini moddiy va ma’naviy rag`batlantirishning turli shakllarini joriy etish;

- yoshlarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishda oliy ta’lim muassa-salari professor-o`qituvchilari, doktorant va aspirantlari hamda soha mutaxassislari va ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlarini keng jalb etish<sup>1</sup>.

Jamiyat intellektual salohiyatining o`zagi va harakatlantiruvchi kuchi ziyorilar hisoblanadi. Jamiyatning intellektual salohiyatini tahlil qilar ekanmiz, uning qator xususiyatlarini ko`rishimiz mumkin. Ular ta’lim olish orqali bilimini oshiradi, ilmiy yangiliklar yaratadi.

Ikkinchi xususiyati, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishini ta’minlash. Ilm-fan kishilarning qat’iy ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan paydo bo`ladi va ilmiy bilimlarning amaliyotga joriy kilinishi insonlar farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning aynan shu xususiyati namoyon bo`ladi.

Zamonaviy ishlab chiqarishda aqliy mehnatning salmog`i ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ma’lumotli ishchilarga talab oshib borishi bunga yaqqol misol bo`la oladi. Gap shundaki, hozirgi ilg`or mamlakatlarda iqtisodiy o`sishni ta’minlashda mehnat sifatining hissasi 20-25% ni tashkil etadi.<sup>2</sup> Ishchi kuchi aqliy mehnatga yo`naltirilib, asbob-uskunalar, ilmiy texnologiyalar ishlab chiqarishga katta e’tibor berilayotganligini AQSH va Yaponiya timsolida ko`rishimiz mumkin. Shuning uchun, intellektual salohiyatdan to`g`ri foydalana olayotgan mamlakatlar jahon rivojlanishida yetakchilik qilib kelmokda. Masalan, «... 70-yillarning boshidanoq Yapon korporatsiyalari mamlakat milliy manfaatlarini ko`zlab ko`p mehnat talab etuvchi ishlab chiqarish korxonalarini rivojlanayotgan mamlakatlar hududida joylashtirishga, mamlakatning o`zidagi ishchi kuchi va mehnat zaxirasini davlatning faol hamda izchil ko`magi bilan mehnat haqi yuqori bo`lgan yangi ilmiy- texnologik sohalarga yo`naltirishga intildi. Bunday siyosatning afzalligi shundaki, birinchidan, u rivojlanayotgan

<sup>1</sup> Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Тошкент: Университет, 1998. - 184 б.

<sup>2</sup> Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иктисодиёт назарияси. - Тошкент: Мехнат, 1995. - Б. 126.

davlatlar bozori Yaponiya iqtisodiyotiga mustahkam rishtalar bilan bog'lanadi; ikkinchidan, mamlakatning ilmiy-texnikaviy hamda texnologik taraqqiyotiga qo'shimcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi».<sup>1</sup> Bunday imkoniyatlar bilan transmilliy korporatsiyalar yordamida kam rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardan katta daromad olishga erishishmoqda.

Tadqiqotchi A. A. Berdishukurov: "Ziyolilarning vujudga kelishi intellektual ma'naviy mulkka ijtimoiy ehtiyojning paydo bo`lishi bilan bog'likdir",<sup>2</sup> - deydi. Bu to`g`ri fikrdir, chunki ilmiy bilimlarning to`planishi hayotiy ehtiyojlar tufayli yuz berdi va keyinchalik jamiyatninng intellektual xizmatlarga bo`lgan ehtiyoji uni ma'lum bir odamlarning ma'naviy mulki darajasigacha ko`tardi. Jamiyatning intellektual salohiyatining yana bir xususiyati ham bozor iqtisodiyoti sharoitida ziyolilarning intellektual mulk egalari sifatida, yaratilgan ilmiy, badiiy asarlar, kashfiyotlar esa intellektual mulk sifatida namoyon bo`lishidir. Davlat rejali iqtisodiyoti davridan farqli o`larok bozor iqtisodiyotida intellektual mulk egalari yangicha xarakter xususiyati, yangicha sifat va yangicha faoliyat ko`rsatish xususiyatiga ega bo`ladi. Davlat rejali iqtisodiyotida intellektual mulk egalari faqat davlat tashkilotlari, korxonalarida xizmat ko`rsatgan bo`lsalar, endi ular jamiyatga o`z aqliy xizmatlarini erkin bozor munosabatlariga asosan taklif qiladilar. Bozor infrastrukturasida intellektual mulk egalari o`zlarining tovarlashgan aqliy xizmat lari bilan namoyon bo`ladi. Muvaffaqiyat qozonish, manfaatdorlikni oshirish raqobat kurash vositasida borganligi sababli xodimlarning sifat darajasi ortib boradi. Raqobat faqat kadrlar o`rtasida emas, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o`quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, qisqa o`quv kurslari o`rtasida ham boradi.

Jamiyat intellektual salohiyatining asos va o`zagini ziyolilar tashkil etishini yuqorida ta'kidlab o`tdik. Jamiyat intellektual salohiyatini tahlil kilar ekanmiz, ziyolilarga ilmiy-falsafiy adabiyotlarda berilgan ta'riflarni ko`rib o`g`ish maqsadga muvofik. Ikkinci jahon urushidan keyingi o`zgarishlar, ayniqsa, AQSH

<sup>1</sup> Bahodir Zokir. G`arb va sharq liberalizmi // Tafakkur. — Toshkent, 2004. - №2. - B. 17.

<sup>2</sup> Berdishukurov A.A. Ziyolilarning demokratik jamiyat qurish jarayonida fuqarolar siyosiy madaniyatini o'stirishdagi roli: Fal. fan. nom. ... dis. - Toshkent: 1999. - B. 19.

va Yevropada boshlangan ilmiy-texnika inqilobi ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishda ilm-fanning hamda intellektual-aqliy mehnatning ahamiyatini oshirib yubordi. Bu esa o`z navbatida, ziyolilar ijtimoiy guruhi va ularning jamiyat taraqqiyotidagi rolini oolib beradigan tadqiqotlar keng miqyosda amalga oshirilishiga olib keldi. Ziyolilar ijtimoiy guruhini tahlil qilganda shakl hosil qilish belgilari asosida ma'lumot darajasi, mehnat xarakteri xususiyatlari, kasb jihatdan farqlanuvchi guruhlarga ajratuvchi yondashuvlar mavjud.

Birinchi guruh tadqiqotchilar kasbiy belgilariga qarab ilmiy, injener texnik, pedagog, madaniyat va ma'rifat sohasidagi, qishlok xo'jaligi sohasidagi va boshka ishlab chiqarish bilan shug`ullanuvchi ziyolilarni ajratishini misol qilishimiz mumkin. Ikkinci biri esa, ziyolilarning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishidagi ishtirokiga asoslanib, uch guruhga bo`ladi:

“1) Moddiy boylik yaratish sohasida faoliyat ko`rsatuvchi ziyolilar.

2) Ilm, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya jabxalarida mehnat qiluvchi ziyolilar.

3) Kasblari turlicha bo`lgan ziyolilar: a) iqtisodiy va texnik; b) ilmiy tadqiqot ishlari; v) maorif; g) tibbiyot; d) adabiyot, sa'nat, madaniy okartuv, maishiy xizmat ko`rsatish kabi sohalarda band bo`lgan ziyolilar va e) xarbiy ziyolilar guruhi”.<sup>1</sup> Lekin intellektual qobiliyat, ijodkorlik, mehnat faoliyati nuqtai nazaridan bitta soha ziyolilari ham bir-biridan farq qiladi.

Masalan, maktab o`qituvchisi ham fanning biron sohasi bo`yicha nazariyalar, kashfiyotlar yaratgan yirik olim ham ziyoli, ularning har ikkalasi ham jamiyatga o`zlarining aqliy mehnatlari bilan xizmat ko`rsatadi. Shu bilan birgalikda, olimning mehnati ko`prok iqtidor, intellektual qobiliyat, ijodkorlik talab qiladi, uning nazariy karashlari, kashfiyotlari fanning rivojlanishiga xissa bo`lib qo`silsa, amalga tatbiq qilinishi esa, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham, jamiyatning rivojlanishidagi aqliy mehnat faoliyatida yuqori mavqega ega bo`lgan intellektual qobiliyat kishilarini haqli ravishda intellektual elita deyishga asosimiz bor.

<sup>1</sup> Berdishukurov A.A. Ziyolilarning demokratik jamiyat qurish jarayonida fuqarolar siyosiy madaniyatini o'stirishdagi roli: Fal. fan. nom. ... dis. - Toshkent: 1999. — B.144.

Intellektual, intellektual kuchlar, intellektual elita deganda akl- zakovatga, yuqori bilim saviyasiga ega bo`lgan alohida shaxs yoki kishilar guruhi tushuniladi.

«Elita so`zi fransuzchadan tarjimada «eng yaxshi», «saralangan», «tanlangan» ma’nolarini bildiradi. U yoki bu o`lchovga binoan eng yuqori bo`lgan qandaydir samarali, aniq va maksimal darajada ifodalanuvchi xususiyatlarga ega bo`lishlikni aks ettiradi».<sup>1</sup> Jamiyat va uning ijtimoiy tuzilishiga nisbatan qo`llanilganda biror-bir ijtimoiy qatlam yoki guruhning saralangan, eng yaxshi sifatlarini o`zida aks ettirgan qismi tushuniladi. Yuqoridagi alohida so`zlarga berilgan ta’riflardan kelib chiqib intellektual elita atamasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin, fanning biron sohasida maktab yaratgan, ilmiy jamoatchilik orasida o`z o`rniga ega olimlar, kashfiyotchilar, qonunchilik sohasida, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda yangiliklar yaratuvchi ijodkor ziyorolar. Intellektual elita jamiyatdagi boshqa ziyorolar dan intellektual farqi, tashkilotchilik va yetakchilikka bo`lgan qobiliyati bilan ajralib turadi. Aynan intellektual elita jamiyat intellektual salohiyatining bir qismi hisoblangan holda jamiyat taraqqiyot taqdirini belgilashda muhim o`rinni egallaydi. Ular tomonidan ilgari surilayotgan g`oyalar, yaratilayotgan kontseptsiyalar asosida jamiyatning ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy qarashlari shakllanadi. Ishlab chiqarishni yangi texnikaviy va texnologik kashfiyotlar, yangiliklar bilan ta’minlashi natijasida mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga xissa qo`shiladi.

---

<sup>1</sup> Пугачев В.П., Соловьев А.И. Сиёсатшуносликка кириш. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. - Б.143..

## **1.2. Intellektual salohiyatni shakllantirish manbalari**

"XXI asr - intellektual yoshlar asri" ekanligi real voqelikka aylangan, globallashuv jarayonlarining ijobjiy natijalari e'tirof etilayotgan, uning salbiy oqibatlari mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanib borayotgan mamlakatlar va xalqlar oldiga informatsion tajovuzlardan himoyalanish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishni talab etayotgan hozirgi sharoitda, shubhasiz, aqliy tarbiya juda muhim o'rinni tutadi.

Zero, inson aqlii mavjudot sifatida olam mohiyatini bilish, o'zligini anglash, voqelikni go'zallik qonunlari asosida qaytadan yaratish, ezgulik va haqiqatni qaror toptirish qudratiga egadir. Biroq aql, insonning fikrlash qobiliyati avloddan avlodga irsiyat yo'li bilan o'tadigan hodisa emas, balki uzlucksiz tarbiya jarayonida muttasil takomillashib boradigan g'oyat murakkab ijtimoiy hodisadir.

Akademik Muzaffar Xayrullaev qator asarlarida ta'kidlaganidek, inson aqliy salohiyatini takomillashtirish, mantiq ilmini rivojlantirish, chinni yolg'onidan farqlash masalalari Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ulug` mutafakkirlar ijodida, xususan, Abu Nasr Forobiy ijodida juda muhim o'rinni egallagan. Ulug` ajdodlarimiz rostgo'ylik, to`g`riso`zlikni axloqiy fazilat sifatida ulug`laganlar; dalillarga asoslanmagan, odamlarni to`g`ri yo'lidan ozdiradigan xato fikr va qarashlarni fosh etish, bilimlarni tajribalar vositasida sinab ko'rish, tekshirish, taqqoslash orqali ishonchli ilmiy bilimlar hosil qilish fanning muhim vazifasi, deb hisoblaganlar.

Forobiy ta'lim-tarbiya tizimida aqliy tarbiyaga, ilm-ma'rifatli bo'lishga, aqlni ilmiy bilimlar bilan boyitish masalalariga juda katta e'tibor berdi. U Sharqda ratsionalizm falsafasining asoschilaridan biri sifatida tanildi.

Forobiy aqliy tarbiyaning boshlang`ich asoslari, manbalari, usul va vositalari haqida fikr yuritdi. U aqliy bilishni hissiy bilishga qarshi qo'ymadi: agar sezgilar ob'ektiv reallikni bevosita, to`g`ridan to`g`ri aks ettirsa, aqliy bilish, mantiqiy bilish sezgilar orqali olingan bilimlarga asoslanadi. Narsalar mohiyatini bilishga intiluvchi inson o'z sezgilari orqali olgan ma'lumotlarni aql elagidan o'tkazish,

sinab ko`rish, tekshirish orqali ishonchli ilmiy bilimlar hosil qiladi.

Forobiy o`zi yashagan davr bilimlarini tasnif qilar ekan, eng avvalo, ularning aqliy tarbiyatagi o`rni va rolini aniqlashga e'tibor berdi. U ilmlarni besh qismga: til bilimi, mantiq bilimi, matematika bilimi, tibbiyot bilimi, siyosiy bilimlarga ajratar ekan, ularning aqliy tarbiyatagi o`rni va rolini ochib berishga harakat qildi.

Mutafakkirning ta'kidlashicha, matematika, tabiatshunoslik va metafizika (falsafa) inson aqlini ishonchli bilimlar bilan boyitadi; grammatika, mantiq va poetika shu ilmlardan to`g`ri foydalanish, ularni to`g`ri ifodalash va boshqalarga to`g`ri tushuntirish uchun xizmat qiladi.

Siyosiy ilmlar va uning tarkibiga kiruvchi etika, huquqshunoslik fanlari esa odamlarga oqilona hayot kechirish, jamoa bo'lib yashash qoidalarini o'rgatadi. Ayniqsa, mantiq ilmi chinni yolg`ondan ajratishga, dalillar asosida to`g`ri xulosalar chiqarishga yordam beradi<sup>1</sup>.

Butun dunyoda globallashuv jarayonlari davom etayotgan, uning salbiy oqibati o'laroq milliy taraqqiyotimizga zid mafkuraviy xuruj va taxdidlar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda yoshlar ongida informatsion immunitetni shakllantirishda, bir tomondan, ulug` ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan foydalanish, ikkinchi tomondan, barcha ta'lif muassasalarida o'qitilayotgan tabiiyotshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlarning, ayniqsa, mantiq fanining tafakkur madaniyati va aqliy tarbiyatagi imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish muhim ahamiyatga molikdir.

Zero, fan voqelikka, erishilgan yutuqlarga tanqidiy yondashishni, tadqiqotchidan esa halollik, xolislik, rostgo`ylik va fidoyilikni talab qilar ekan, ana shu xususiyati bilan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda hal qiluvchi rol o`ynaydi.

Shubhasiz, zamonaviy fan asoslarini chuqur va puxta egallagan bilimdon yoshlar aniq dalillarga asoslanmagan, isbot va dalilsiz uydirmalarga, tuxmat va bo`htonlarga o`z vaqtida keskin zarba berish va haqiqatni himoya qilish va qaror

<sup>1</sup> (к.: Фарабий. О происхождение наук (С.Н Григорян. Из истории философии Средней Азии и Ирана). М.,1960. С.153)

toptirish uchun kurashga bel bog`laydilar.

Mafkuraviy immunitetning shakllanishida ijtimoiy-siyosiy fanlarning, ayniqsa, falsafa, tarix, siyosatshunoslik, huquqshunoslik fanlari juda muhim o`rin egallaydi. Jamiyatimiz hayotida ro`y berayotgan muhim ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar mohiyatini ilmiy asosda o`rganmay turib, aktiv hayotiy pozitsiyaga, siyosiy maslakka ega bo`lish mumkin emas: barkamol avlodning intellektual, aqliy kamolotini bu fanlarsiz hatto tasavvur etib bo`lmaydi.

Birinchi Prezidentimiz ta`kidlaganidek, “Kuch - bilim va tafakkurdadir”: ma’naviyati yuksak, aqlii, bilimdon xalqni hech qachon engib bo`lmaydi. Bu shubhasiz haqiqatdir. Shunday ekan, ta’lim muassasalarida o`qitish sifati va samaradorligini oshirish, fanlarning aqliy tarbiyadagi rolini kuchaytirish orqaligina xalqimiz farovonligini yanada yaxshilash, muhimi, uni informatsion tajovuzlardan himoyalash imkoniga ega bo`lamiz.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish barcha ziylolar, ilm-fan ahlining muhim vazifasi, vatanparvarlik burchidir.

Modomiki, jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o`rganar ekanmiz, uning manbalari va omillarini ko`rib chiqishimizga to`g`ri keladi. Bu esa o`z navbatida, ushbu manba va omillarni taqlil qilishimiz, keyingi paragraflarda o`tish davri davlat siyosatida aynan nimalarga e’tibor berishimiz zarurligini aniqlab olishimizga ham yordam beradi. Dastlab, intellektual saloqiyatning shakllanishiga asos bo`luvchi manbalarni qarab chiqadigan bo`lsak, ular jamiyatdagi ta’lim-tarbiyaning erishilgan darajasi, ta’lim tizimi, ilm-fan, ilmiy tadqiqotlar, ma’rifiy targ`ibotlarni o`z ichiga oladi.

Biz ularni ko`rinishlariga qarab quyidagicha guruhlarga ajratishimiz mumkin:

- 1) Ta’lim tizimi va ta’lim jarayoni.
- 2) Tarbiya orqali mustaqil o`rganish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga intilishning shakllantirilganligi.

3) Ilmiy tadqiqotlar olib borilishi orqali ilmiy yangiliklar va kashfiyotlar qilinishi.

4) Ma'rifiy targ'ibot va ilmiy bilimlarning ommalashtirilishi.

5) Ishlab chiqarish va kundalik qayotda joriy qilinayotgan yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish borasidagi shaxsiy tajriba.

6) Tarixiy rivojlanish jarayonida millat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar.

Bular orasida ta'lim va ta'lim tizimi butun jamiyat a'zolarini o'qitishni kamrab olish imkoniyati bo`lganligi uchun asosiy o`rinni egallaydi.

Zamonaviy ta'limning mohiyati ilmiy bilimlarni o'qitishni qamrab oladi. «Ilmiy bilishning vazifasi borlikdagi predmet va qodisalarning ichki tabiatini, ulardagi aloqadorlik va bog'lanishlarni, ularda amal qiladigan qonunlar va qonuniyatatlarni, xullas, ularning mohiyatini bilishdan iboratdir».<sup>1</sup> Ilmiy bilimlarning ma'lum bir tizimlari fanlarni tashkil etadi va tabiat, jamiyat, inson, inson tafakkuri to`g`risidagi bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchi uchun manba bo`lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilimlarning o`ziga xosligi, kundalik bilimlardan farqi uning voqelik mohiyatiga kirib borishi va nazariy xarakterda ekanligidir. Dalillar majmui qonuniyat sifatida tan olinganda ilmiy bilim qosil bo`ladi. Ma'lum bir sohaga, tarmoqqa taalluqli ilmiy bilimlar yig`ilib fanni vujudga keltiradi. Fanning bevosita maqsadi voqelikni, sodir bo`lgan qodisa va jarayonlarni tasvirlash, tushuntirish va oldindan aytib berishdan iborat. Amaliyotda fan ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'naviy qayotni tub dan yangilashning muhim omili bo`lib xizmat qiladi. Fan hayotga, bir tomonidan, mehnat vositalarini, ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish orqali joriy qilinsa, ikkinchi tomonidan, ta'lim tizimi orqali ishchi kuchining malakasini oshirish yo`li bilan tatbiq qilinadi. Fan va ilmiy bilimlar intellektual salohiyatning hosila mevasi, o`z o`rnida jamiyat tomonidan o'zlashtirilgan qismi intellektual salohiyatning tarkibiy qismidir. Jamiyat taraqqiyoti ham fan va ilmiy bilimlarning yaratilishi va jamiyatga

<sup>1</sup> Falsafa: (O`quv qo'llanma) E. Yusupovning umumiyl taxriri ostida.— Toshkent: Sharq, 1999. -B.417.

transformatsiyalashtirilishi bilan bog`likdir. Ta`limning sifati ilmiy- pedagogik kadrlar soni va malakasi bilan bevosita bog`lik, chunki ular to`plangan bilimlarni tayyorlanayotgan kadrlarga transformatsiyalovchi rolini o`ynaydi.

Ta`lim kabi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda tarbiya asosiy manba hisoblanadi. Ta`lim va tarbiya bir-biri bilan ajralmas jarayondir. Ta`limdagи tarbiya-ta`lim tizimi orqali xislat, fazilat, odob-axloqni singdirishdir. «Ta`lim degan so`z xalqlar va shaharliklar o`rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o`rtasidagi tug`ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so`zdir. Ta`lim so`z va o`rgatish bilangina bo`ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o`rganishdir, ya`ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo`lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo`lishidir»<sup>1</sup>. Ta`lim jarayonida o`qitish orqali fan sohalari bo`yicha bilim berilib, nazariyalar, ta`limotlar o`rgatilsa, tarbiyada inson umri bo`yi amal qiladigan intizom, intiluvchanlik, mustakil o`qish- o`rganish, izlanish, qobiliyat, nutk, ajdodlar merosiga xurmat va boshka ko`nikma hamda malakalar shakllantiriladi. Abdulla Avloniy insoniy fazilatlarni shakllantirishda tarbiyaning ahamiyatiga to`xtalib shunday deydi: «Janobi xaq insonlarning asl xilqatda iste`dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo`ladur».<sup>2</sup> Xatto shaxs shakllanish jarayonida undagi biror sohaga bo`lgan qobiliyat o`z vaqtida anglanib, tarbiya orqali rivojlantirilsa, unda yaxshi fazilatlar shakllantirilsa, jamiyatga katta foyda keltiradi. Aksincha, yoshlikda qobiliyat tarbiyalanmasa, u so`nishi ham mumkin.

Tarbiya orqali singdirilgan xislat va fazilatlarga inson bir umr amal qilib yashashga intiladi. Shuning uchun, Abdulla Avloniy: «...dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdur»,<sup>3</sup> – degan edilar. Shu sababli, faqat o`zbek xalqida emas, boshqa ko`pgina xalqlarda ham tarbiya yuksak insoniy qadriyat hisoblanadi. Chunki «...balog`at va bilimlarga, ya`ni rivojlanishga tarbiya

<sup>1</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: А. Қодирий. Халқ мероси, 1993. - Б. 184.

<sup>2</sup> А.Авлоний Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 12.

<sup>3</sup> O`sha manba. — B. 16.

va mashq orqali erishiladi».<sup>1</sup> Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tarbiyaning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini ta'kidlab: «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo`lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotga nechog`li faol munosabatda bo`lishiga, qanday oliv maqsadlarga xizmat qilishiga bog`liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak»,<sup>2</sup> - degan edilar.

Abdulla Avloniy o`zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida tarbiyaga to`xtalib: «Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o`rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o`stirmakdur»,<sup>3</sup> - deydi. Alovida shaxs tarbiyasi orqali shaxs xarakteri, umummilliy tarbiya orqali esa, milliy xarakter shakllantiriladi. Milliy xarakterning mamlakat iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotida ahamiyati nixoyatda katta. XVIII asrda yashagan fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo: «biz tayanishimiz kerak bo`lgan birinchi tamoyil - milliy xarakterdir: har bir xalq milliy xarakterga ega yoki ega bo`lishi lozim; xalqda u bo`lmagan taqdirda ishni unga bunday xarakter berishdan boshlash kerak bo`ladi»,<sup>4</sup> - degan edi. Milliylikning qayta tiklanishi, sotsialistik tuzumning barbod bo`lishi natijasida taraqqiyotga olib boruvchi bozor iqtisodiyotiga o`tilayotganligi, dunyo xalqlariga o`zbek millatini namoyon qilish zarurati milliy xarakterni tarbiyalash nihoyatda muhim ekanligini ko`rsatadi. Chunki «har bir xalqning o`z taraqqiyot yo`li o`ziga xos va mos bo`ladi. O`ziga xoslik deganda, uning milliy xarakter xususiyatlari namoyon bo`ladi. Bu taraqqiyotning o`ziga mos modeli orqali ifodalanadi. Taraqqiyotning modeli har bir xalq yoki millatga xos tarix, xarakter va xulq-atvor normalari, shu xalqning falsafasi, tafakkur tarzi, davlat va jamiyat to`g`risidagi tasavvurlari, ko`nikmalari, unga bo`lgan munosabati hamda qadriyatları orqali ifodalanadi».<sup>5</sup> Bunday millatga xos xarakter xususiyatlar esa, tarbiyaviy jarayonlar va vositalar

<sup>1</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: А. Қодирий. Халқ мероси, 1993. - Б. 23.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. // Биз келажагимизни ўз кўнимиз билан курамиз. Т.7.- Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - Б. 385.

<sup>3</sup> А.Авлоний Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 12.

<sup>4</sup> Руссо Ж.Ж. Трактат. - М.: 1969. - С. 268.

<sup>5</sup> Ergashev I. Taraqqiyotning murakkab yo`llari // Jamiyat va boshqaruv. —Toshkent, 1998. — №1. — B. 25.

orgali shakllantiriladi, singdirib boriladi, bir avloddan ikkinchi avlodga meros sifatida qoldiriladi. Tarbiyaning hosilasiga aylanib taraqqiyotga inson sifatlari omili bo`lib xizmat qiladi. Shuning uchun, Abu Nasr Forobiy ham o`zining «Fozil odamlar shahri» asarida: «...qoidali va sog`lom fikrlash fazilatiga ega bo`lgan shahar va fozil odam hamisha g`olib ekanligini...»,<sup>1</sup> – yozib qoldirgan.

G`ofurov K. «Biznes «samuray»lari» makolasida Yapon menejerlarini tayyorlashga to`xtalib: «Raqobat kuchsizlar uchun shafkatsiz, shu boisdan, menejerlar umr bo`yi o`z ustilarida ishlaydilar, o`qiydilar, izlanadilar. Yevropa matbuotining ta`kidlashicha, Yaponiyada mashk qilish maktablari mavjud bo`lib, mazkur biznes maktablarida bo`lajak rahbarlar «chiniqish» jarayonini bosib o`tishlari lozim. Ular ruxiy ta`sir ko`rsatish, kamsitish, xo`rlash va har turli jismoniy jazolash usullari orqali amalga oshiriladi. Kurashda g`olib chikish uchun bugun menejerlar Samuraylarni mashxur qilgan xislatlariga ega bo`lishi lozim. Ular intizom, maqsadga intilish, xatto, o`z manfaatlaridan ham voz kechish orqali imkoniyatlarini yuz foiz safarbar etish xususiyatlaridir. Yapon ishbilarmonlari asosli ravishda bugungi shafqatsiz biznes dunyosida faqat omon qolish tizimida tarbiya langan, biznes «samuray»larigina jon saqlab qolishlari va yutib chiqishlari mumkin, deydilar».<sup>2</sup> Bunday tarbiya Yapon menejerlarining imkoniyatini oshirdi, tabiiy xom ashyo yetishmovchiligi muammosini va tashqi bozordagi raqobat qiyinchiliklarini qat’iyat bilan yengib o`tishni ta’minladi. Menejerlarda, qolaversa, barcha soha mutaxassislarida o`ziga xos xarakter xususiyatlarni shakllantirish Yaponiya rivojlanishiga katta xissa qo`shdi, ichki bozorda mahalliy tovarlar miqdorini va sifatini oshirishga, jahon bozorida munosib o`rin egallay olishiga xizmat qildi. Bozor iqtisodiyoti intiluvchan, izlanuvchan shaxsni tarbiyalashni talab etadi. Demak tarbiyada shaxsni harakatga undovchi ma’naviy energiya manbai bo`lgan faoliyat motivini tarbiyalanuvchiga singdirish zarurati paydo bo`ladi.

Xo`sh faoliyat motivi nima?

<sup>1</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: А. Қодирий. Халқ мероси, 1993. - Б. 18.

<sup>2</sup> G`ofurov K. Biznes «Samuray»lari // Jamiyat va boshqaruv. —Toshkent, 1998. — №1. — B. 31.

M. Sharifxo`jaev, Y. Abdullaevlar «Menejment» darsligida: «Motivlashtirish — bu ruxiy omil bo`lib, shaxs faolligining manbai, sababi, dalili va har xil turli extimollaridir. U xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag`batlantiruvchi kuchli vositadir»,<sup>1</sup> – deb ko`rsatadi. Demak, faoliyat motivi insonlarning faoliyatiga asos, sabab bo`luvchi, hayotining muhim sharti bo`lib, uni harakatga undab turuvchi fikr yoki g`oyadir. Ta`lim va tarbiya orqali bunday g`oya uzoq muddat singdirib borilsa, dastlab insonni harakatga undashi, uning intilishi, sabr-bardoshi, intizomi, hayotiy qoidalarini, keyinchalik xarakterini shakllantirish mumkin. «Boshqacha qilib aytganda motivlashtirish bu kishilar faoliyatini ruxiy yo`llar bilan maqsadga muvofiq yo`naltirishdir».<sup>2</sup> Shuning uchun ham, Abdulla Avloniy: «Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko`p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g`ayratlik bo`lishiga sabab bo`ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so`ng darajada muxtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog`likdir»,<sup>3</sup> - deb ko`rsatadi. Ya`ni fikr tarbiyasi orqaligina shaxs ongiga uni ezgulikka, harakatga, intilishga undovchi, yetaklovchi g`oyani singdira olish mumkin. Forobiy ham o`zining «Fozil odamlar shahri» asarida shunga o`xshash fikr bildirib, «Amaliy fazilatlar va amaliy san`at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odatda, ikki yo`l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi qanoatbaxsh so`zlar, chorlovchi, ilxomlantiruvchi so`zlar yordamida hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagи g`ayrat, qasd – intilish harakatga aylantiriladi»,<sup>4</sup> - deb ko`rsatadi. Ikkinci yo`l - majbur etish usuli bo`lib, «gapga ko`nmovchi qaysar» kishilarga nisbatan qo`llanilishini aytadi. Demak, faoliyat motivi bo`lgan fikrlar, g`oyalar madaniyatli jamiyatda yashayotgan shaxsda ta`lim-tarbiya orqali shakllantirilishi katta ahamiyatga ega.

<sup>1</sup> Sharifxo`jaev M., Abdullaev Y. Menejment. Oliy o`quv yurtlari bakalavr va magistrantlar uchun darslik. - Toshkent: O`qituvchi, 2001. -B. 487.

<sup>2</sup> O`sha manba. - B. 487.

<sup>3</sup> А. Авлоний Туркий гулистон ёхуд ахлок. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 15.

<sup>4</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: А. Қодирий. Халқ мероси, 1993. - Б. 85.

Har bir shaxsda o`z dunyokarashidan kelib chiqib, shaxsni intiluvchanlikka, izlanuvchanlikka undab, rag`batlantirib turadigan faoliyat motivlari bo`ladi, albatta. Lekin zamonaviy ta`lim-tarbiyaning ahamiyati davr ruxiga mos, samarali g`oya va fikrlarni ko`tarib chiqish va yoshlarga hayotiy tamoyil darajasida singdira olishdadir. Jumladan, intellektual salohiyatni shakllantirish, rivojlantirishda ham yoshlarni ilm-fan, texnika-texnologiya sirlarini egallashga rag`batlantirib turuvchi fikrlar, ya`ni umummilliy tarbiyada faoliyat motivi bo`lib xizmat qiluvchi fikr va g`oyalarga zarurat tug`iladi. Bunday fikr va g`oyalar faqat tarbiya orqali yoshlargagina emas, balki targ`ibot va tashviqot orqali jamiyat ongiga singdirib borilishi talab etiladi.

Shunday faoliyat motivi vazifasini o`tagan g`oyalarga tarixda misollar juda ko`p, xatto ular jamoalarning shiorlariga, insonlarning hayotiy tamoyillariga aylanib ketgan. Masalan, II jahon urushidan keyin rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-texnika yutuqlari hayotga joriy qilindi, ajoyib mehnat va turmush sharoitlari, tovar va xizmat turlarining istagan turini tanlash imkoniyati paydo bo`ldi. Lekin moddiy iste'molchilik insonlarning ichki dunyosini, ma'naviy ehtiyojini qondira olmadi. Shuning uchun, fransuz sotsiologi Furaste: «iste'molchilik baxt keltirmaydi»,<sup>1</sup>- degan fikrni keltirdi. Insonlar uning bunday real hayot bilan bog`liq fikrlariga qo`shilishdi. Ular bo`sh vaqtlarini jamiyatga foydali ishlarga, xayriya va mexr shafqat ishlarida qatnashishga, teatr, musiqa, rangtasvirlarni tomosha qilishga, ulardan zavq olishga ajrata boshlashdi va inson hayotida ma'naviy ehtiyojni qondirishga intilish kuchaydi.

Yoki boshqa bir misol. Yaponiyada oddiy Yapon kishisining: «Yaponlar hamma narsani qayta kashf qilishi shart emas, balki boshqa xalqlar kashf qilgan narsalarga nimadir yangilik kiritib o`ziniki qilib olishlari kerak», - degan fikrini olaylik. Keyinchalik uning fikri butun Yapon xalqining faoliyat motiviga aylangan g`oya bo`ldi. Bu Yaponiyada yangilikka intilishni kuchaytirdi. Endi Yaponlar jahon xalqlari tomonidan erishilgan fan-texnika yutuqlarini o`zlashtirish bilan cheklanmasdan, ularni rivojlantirish, takomillashtirishga intila boshlashdi. Bu

<sup>1</sup> Furaev V.K. Eng yangi tarix. -Toshkent: O`qituvchi, 1995. - B. 347.

faoliyatlarga hamoxang ta’lim tizimida ham «Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin», «O’z ustingda tinimsiz ishla — shunda birovdan kam bo`lmaysan» kabi g`oyalar yoshlar ongiga singdirib borildi. Uzluksiz ta’lim yangi tuzilmasining eskisidan farqi kasb-hunar litseylarida kasb-hunar egallash va umumiy o`rta ma’lumot olish yoki akademik litseylarida chuqurlashtirilgan umumta’lim tayyorgarligini olishni ko`zda tutuvchi ixtiyoriy-majburiy uch yillik o`qishning (9-sinf asosida) kiritilishi bo`ldi. Ta’lim tizimida bunday o`zgarishning kiritilishidan ko`zlangan maqsad 9-sinfni bitirayotgan 450 ming nafar bolalarning 100 mingga yaqini ta’lim-tarbiya jarayonidan chetlashib qolayotgan yoshlarni kasbga yo`naltirishga erishishdan iborat<sup>1</sup> edi. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti «Tafakkur» jurnali bosh muxarririga bergen intervusida : “...yoshlarni muayyan bir ixtisosga ega qilib, hayotga yo`llanma beramiz. Dunyoga umid bilan qadam qo`yib kelayotgan navnihol inson hayotdan munosib o`mini topsa, turmushidan, taqdiridan, vatanidan rozi bo`lib yashaydi, umr bo`yi bunyodkorlik faoliyati bilan mashg`ul bo`ladi”,<sup>2</sup> - degan edilar. Shuning uchun, O`zbekistonda 11 yillik umumta’lim maktablari o`rniga 9 yillik majburiy va 3 yillik majburiy ixtiyoriy ta’lim akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari joriy qilindi. Bu bilan akademik litseylar da kasb-hunarga yo`naltirilgan bilim olish, kasb-hunar kollejlarida esa, tanlangan kasblar bo`yicha bir yoki bir necha kasbni egallash imkoniyati yaratildi.

Oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni ko`p bosqichli tayyorlashga o`tildi. Oliy ta’lim o`rta maxsus kasb-hunar ta’limi negiziga asoslangan hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichlariga ega bo`ldi. Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan biz kadrlar tayyorlashda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdik, lekin kamchiliklar, yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Ta’lim sohasida islohotlarning bosqichma-bosqich olib borilishining mohiyati ham

<sup>1</sup> Каримов И. А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори // Хавфсизлик ва баркарор тараккиёт йўлида. Т.6. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998. -Б. 332.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Жамиятимиз мафкураси халкни - халк, миллатни миллат қилишга хизмат этсин // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. -Тошкент: Ўзбекистон, 1999.-Б. 96.

ana shu kadrlar tayyorlashdagi muammolarning yechimlarini asta sekin topish va yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash darajasiga erishishdir.

Ilmiy bilimlarning ommaviylashtirilishi yo`lidagi ma'rifiy targ`ibot ham jamiyat intellektual salohiyatini shakllantiruvchi manbalardan biri bo`lib hisoblanadi. Bu ilmiy va ommabop gazeta, jurnallar, internet aloqalari, radio va televideniedagi intellektual o`yinlar, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy eshittirish hamda ko`rsatuvar vositasida amalga oshiriladi. «...ma'rifat (intellektual targ`ibot) xalqni maktab, institut-universitet dan keyin ham uzlusiz o`z ustida ishlashiga, zamonaviy bilimlardan xabardor bo`lib borishiga xizmat qiladi. Inchunun, bilimli jamiyatgina kuchli jamiyat bo`la oladi».<sup>1</sup> Ma'rifiy targ`ibot orqali berilayotgan bilimlarning o`zlashtirilishi uch xil sabablar bilan bog`lik bo`ladi: birinchidan, qanday bilimlar targ`ib qilinayotganligi, ya`ni targ`ib qilinayotgan bilimlar shaxsning mehnat faoliyati, kundalik turmushiga qay darajada zarur va mos keladi. Masalan, sement sanoat korxonasida mehnat qilayotgan mutaxassis uchun polimerlar haqidagi ilmiy maqolani o`qib o`rganishga ehtiyoj bo`lmasligi mumkin.

Ikkinchidan, shaxsning mazkur axborot va bilimlarni o`zlashtirish qobiliyati va uni amaliyotda ko`llay bilish ko`nikmalari. Agar mutaxassislarda bunday mustaqil o`qib o`rganish ko`nikmalari ta'lim tizimida shakllantirilmagan, qobiliyatlar rivojlantirilmagan, amaliyotda esa bunga e'tibor berilmagan bo`lsa ma'rifiy targ`ibotdan foydalana olmaydilar. Bunday mutaxassislarning jamiyatda ko`pligi esa, yangilanish jarayonlarini ortga surib yuboradi.

Uchinchidan, targ`ib qilinayotgan bilimlarning ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy hayotda qay darajada talab qilinayotganligi. Bunda talabga karab bilimlarni o`zlashtirish ehtiyoji paydo bo`ladi. Iqtisodiy, siyosiy yangilanishlar davrida bu hayotiy ehtiyoj darajasiga ko`tariladi. Ya`ni yangi axborot va bilimlarsiz mehnat faoliyatini yuritish imkoniyati bo`lmay qoladi, mutaxassislar davr talablaridan kelib chiqib, o`z bilimlarini malaka oshirish yo`li bilan yoki o`zlari mustaqil o`rganish orqali oshirishga harakat qiladilar.

---

<sup>1</sup> Quvvatov N. O'tish davri tafakkuri. -Toshkent: Ma'naviyat, 2002. - B. 19-20.

Bilimlarning paydo bo'lishida kuzatish va tajribaning ham ahamiyati alohida. Shuning uchun, qadimgi hind falsafasida bilimlarning asosi tajribadir, deyiladi. Kadrlarning ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog`liq shaxsiy tajribasi ham ma'lum ma'noda jamiyat intellektual salohiyatining oshishiga olib keladi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga yuz tutib, globallashuv jarayonlarida ishtirok etishi tufayli mamlakatimizga kirib kelayotgan yangi texnika texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi va kadrlarning ulardan foydalanishi davomida bunga amin bo'lmoqdamiz.

### **1.3. Jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli**

Jamiyatning intellektual salohiyati uzoq vaqt davomida shakllantirilib, rivojlantirilib boriladi. Jamiyat intellektual salohiyatining shakllanishiga yuqorida sanab o`tgan manbalar asos bo`lib xizmat qilsa, uning rivojlanishida qator omillar ishtirok etadi. O`zbek tilining izohli lug`atida «omil» so`ziga quyidagicha ta`rif berilgan: «Ish-harakat, voqeа-hodisa va shu kabilarning yuzaga chiqishi, sodir bo`lishi uchun sabab bo`lgan narsa».<sup>1</sup> Demak, jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar deganimizda, uning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun sabab bo`lgan narsalar: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, shart-sharoitlar va imkoniyatlar tushunilar ekan. Lekin jamiyatdagi hamma munosabatlar ham intellektual salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilavermaydi va salbiy ta`sirga ega omillar sifatida namoyon bo`ladi. Shuning uchun, jamiyat intellektual salohiyati rivojiga ta`sir etuvchi omillarni: ijobiy ta`sir etuvchi omillar va salbiy ta`sir etuvchi omillarga bo`lamiz. Jamiyatning intellektual salohiyati shakllanishi va rivojlanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar asosida yuzaga keladi. Tarixiy meros va tajriba omili borki, jamiyat o`zidan oldingi avloddan qanday tarbiyaviy ko`nikmalar, ta`lim va ma`rifatchilik sohasidagi an`analarni, ilmiy aqliy bilimlarni ishlab chiqarishga qo`llash qadriyatlarini meros qilib olganligi bilan bog`liq. U uzoq tarixiy davrda jamiyat qanday ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish usullari va munosabatlaridan foydalaniб kelinganligi asosida vujudga keladi. Shu kabi mehnat resurslarining qaysi sohalarda sanoat, ilmiy-texnik yoki qishloq xo`jaligida bandligi ham tarixiy meros va tajriba omilining shakllanishiga ta`sir ko`rsatadi. Bu esa jamiyatning bir necha o`n yillar, balki asrlar davomida ilmga intilish, o`rganish, o`zlashtirish qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi va xalqning ijtimoiy ruxiyatini shakllantiradi, moddiy, ma`naviy ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida ijtimoiylashadi. Ijtimoiy ruxiy

---

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугъати. 2 Т. М.: Рус тили, 1981. Т.1. - Б. 536.

omil esa aholining ilm-fan sirlarini egallashga, mutaxassis kadr bo`lib yetishishga intilish kayfiyatining qay darajada ekanligidir. Ijtimoiy ruxiy omil uzoq tarixiy rivojlanish mobaynida shakllanadi va ehtiyoj, manfaat sifatida paydo bo`lib, e'tikod darajasigacha ko`tariladi.

Jahon mamlakat lari tajribalaridan ma'lumki, birorta davlat yetuk intellektual salohiyatsiz rivojlanmaydi. Chunki, intellektual salohiyat davlatni rivojlantirishdagi asosiy g`oyalarni ishlab chiqadi va uni amalga oshirishda yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham, intellektual salohiyatni shakllantirish davlat faoliyatining asosiy yo`nalishini tashkil qiladi.

Jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda ilmiy pedagogik kadrlar faoliyati, ishlab chiqarishning ta'lim tizimi va ilmiy muassasalar bilan integratsiyasi, olimlar tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar, yangiliklar va boshka bir qator yo`nalishlarning samarasi davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatga bog`lik bo`ladi. Chunki, davlat o`z siyosati bilan ularni uyushtirib, tashkil qilib boradi.

Intellektual salohiyatni rivojlantirishni ta'minlovchi, unga ko`mak beruvchi huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy sohalarda davlat siyosiy boshqaruvida qo`llaniladigan usul, vositalar va imkoniyatlar davlat siyosati omili hisoblanadi. Bu davlatning siyosiy boshqaruva maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. «Siyosiy boshqaruva o`z mazmuniga ko`ra jamiyat siyosiy hayotining izdan chikishining oldini olishga xizmat qiluvchi jarayon hisoblanadi. U siyosiy tizimni barkarorlashtiradi va uni jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma`naviy tizimi bilan muvozanatini ushlab turishga xizmat qiladi».<sup>1</sup> O`z navbatida siyosiy boshqaruva ijtimoiy bashorat, rejalashtirish, qonunlar, karor, farmon, farmoyishlar qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish kabi ishlar orqali amalga oshiriladi. Boshqaruva ilmi bilan shug`ullanuvchi olimlar boshqaruvning quyidagi oldindan ko`rish (anglash), rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish,

---

<sup>1</sup> Политология / Отамуратов С., Эргашев И., Акрамов Ш., Кодиров А.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - Б. 130.

nazorat, rag`batlantirish funksiyalarini ajratib ko`rsatadilar.<sup>1</sup> Ushbu funksiyalar mikro va makro darajadagi barcha iqtisodiy va siyosiy boshqaruvar uchun xos. O`z navbatida davlat siyosiy boshqaruvi alohida xususiyat va imkoniyatlarga ham ega. Davlat ma'lum bir xududda ko`plab mikro darajadagi boshqaruvlarni o`z ichiga olgan makro darajada boshqaruvni amalga oshiradi. Uning jamiyatdagi boshqaruv imkoniyatlari va vazifalari siyosiy hokimiyatning legitimligidan kelib chiqadi. Ya'ni jamiyatda siyosiy ob'ektlar siyosiy hokimiyatning tashkiliy, me'yoriy tizimlar, obro', kuch ishlatish vositalari orqali boshqarish, ta'sir o'tkazish huquqi va vakolatini qonuniy jihatdan tan oladilar. Shuning uchun, siyosiy hokimiyat jamiyatning turli sohalarini, jumladan, ta'lim tizimi, kadrlar siyosati, fanni, ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishda ustuvor boshqaruv imkoniyatlariga ega bo`ladi va hech qanday tashkilot davlat hokimiyatichalik imkoniyatlarga ega bo`la olmaydi. Bu davlat siyosiy hokimiyati siyosiy boshqaruv sohasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida intellektual salohiyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan bir qator funksiyalarini bajarishida ham namoyon bo`ladi. Biz yuqorida keltirilgan boshqaruv funksiyalaridan kelib chiqib va davlat hokimiyatining boshqaruvdagi imkoniyatlarini hisobga olgan xolda bunday funksiyalarini quyidagilar deb ko`rsatishimiz mumkin:

— Me'yoriy tizimlarni shakllantirish va ularni isloh qilish funksiyasi, ya'ni qonunchilik bilan shug`ullanish, davlat dasturlari, turli qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, nizomlar qabul qilishi va umumjamiyat tomonidan ularga amal qilishning majburiyligi.

— Ta'lim tizimi, ilmiy ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan institutsional boshqaruv tizimlarini hamda alohida tashkil ot lar, muassasalarni tashkil qilish va qayta tashkil qilish funksiyasi.

— Muvofiklashtirish funksiyasi, kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqot institutlari va laboratoriyalari hamda alohida ishlab chiqarish jarayonlari o`rtasidagi tezkor o`zgarishlarni muvofiklashtirishda, makro iqtisodiyot va mikro iqtisodiyotni bir-

<sup>1</sup> Sharifxo`jaev M., Abdullaev YO. Menejment. Oliy o`quv yurtlari bakalavr va magistrantlar uchun darslik.—Toshkent: O`qituvchi, 2001. - 78-79 b. Yoki To`xtaboev A. Ma'muriy menejment. —Toshkent: Moliya, 2003, - B. 62-63.

biriga bog`lashda, ta`lim tizimi, ilmiy tadqiqot muassasalarini, alohida korxona, firmalar faoliyatini umumjamiyat manfaatlariga hamoxangligini ta`minlashda namoyon bo`ladi.

— Yo`naltirish funksiyasi, ilmiy tekshirish institutlari, oliv o`quv yurtlari, litsey, kollej va o`rta umumta`lim maktablarini, umuman fan-madaniyat tashkilotlarini mehnat faoliyatiga, ma'lum bir ixtisoslikka, maqsadga tomon harakatga keltirish.

— Jamiyatda yaratilgan yalpi milliy mahsulotni taksimlash va qayta taksimlash funksiyasi. Bu yaratilgan moddiy boyliklarning bir kismi qayta taksimlash yo`li bilan fan-madaniyat, ta`lim tizimidagi mehnatni va aniklangan jamoa hamda xizmatchilar faoliyatini moddiy rag`batlantirish orqali amalga oshiriladi. Kishilarning moddiy va ma`naviy ne`matlarni yaratish qobiliyatini qayta tiklash va ularning mehnatga bo`lgan kizikishini uyg`otishga xizmat qiladi.

— Ishlab chiqarish, ta`lim, ilmiy tadqiqotlar natijalari va tashkil ot lar faoliyatini tahlil qilish va keljakni mo`ljallashtirish: nazorat qilish, natijalarni hisob-kitob qilish, prognozlashtirish, rejalashtirish kabi funksiyalari.

— Ma`naviy rag`batlantirish funksiyasi, ya`ni bajarilgan ishlarini taqdirlash, mukofotlash, mansab pog`onalaridan ko`tarish orqali vatanparvarlik, bilimdonlik, yetakchilik, mehnatsevarlik, mas`uliyat, mehnat sifatini oshirish kabi fazilatlarni rag`batlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy faoliyatni tashkillashtirish funksiyasi, boshqaruv usullarini ko`llash funksiyasi.

Davlat ma'lum ma`noda novatorlik funksiyasini ham bajaradi, yangiliklarni, yangi o`qitish metodlarini ta`lim tizimiga, yangi texnika- texnologiyalarni ishlab chiqarishga, yangi boshqaruv usullarini boshqaruv tizimlariga joriy qilishda yetakchilik qiladi.

Davlatning jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirishidagi faoliyatini ikkita umumiyo`nalishga bo`lishimiz mumkin.

Birinchisi, bevosita intellektual salohiyatni shakllantirish faoliyati.

Ikkinchisi, bilvosita, ya’ni jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish uchun kerakli siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy sohalarda shart-sharoitlar yaratish.

Davlatning bevosita intellektual salohiyatni shakllantirish faoliyati ta’lim siyosati, fanni rivojlantirish siyosati, kadrlar siyosati, ma’rifatchilikni qo’llab-quvvatlash siyosati, qabul qilingan qonunlar, qarorlar, ta’lim sohasini, ilmiy muassasalarni rivojlantirish dasturlari va ularning davlat budgetidan mablag` bilan ta’milanishini qamrab oladi. Jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirishda bu yo`nalish asosiy va belgilovchi hisoblanadi. Shuning uchun ham, dunyoning yetakchi davlatlarining ko`pchiligidagi XXI asrda ta’limni yanada rivojlatirishga e’tibor qaratilmoqda. Masalan, “Germaniyada “2000 yilda ta’lim”, AQSHda “Amerikaliklar uchun XXI asr ta’limi”, Fransiyada “Kelajak ta’limi”, Yaponiyada “XXI asr uchun ta’lim modeli” qabul etildi”<sup>1</sup>. Rivojlangan davlatlarning yangi asr arafasida bunday dasturlar qabul qilishiga sabab ta’lim tizimiga taraqqiyotning o`zi yangidan-yangi talablarni qo’ymoqda. Shuning uchun, dunyo mamlakatlarida oliy o`quv yurtlariga kiruvchilar miqdori ham oshib bormokda. Masalan, Yaponiyada kadrlarni yuz foiz oliy ma’lumotli qilishga harakat qilinmoqda.

Mustaqillik yillarda O`zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlarni ham davr talablaridan kelib chikkan mamlakatni zamonaviylashtirishning bir kismi deyishimiz mumkin. Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, 1992 yilda mustaqillik yillardagi birinchi «Ta’lim to`g`risida»gi qonun, 1997 yil 29 avgustda ikkinchi «Ta’lim to`g`risida»gi qonun, shu yili «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi. «Umid», «Mirzo Ulug`bek», «Ustoz» jamg`armalari tashkil qilinib davlat tomonidan mablag` bilan ta’milandi, keyinchalik «Umid» va «Ustoz» jamg`armalari birlashtirilib, hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan «Iste’dod» jamg`armasiga aylantirildi. Yangi institutlar va universitetlar tashkil qilindi.

Intellektual salohiyatni rivojlantirish va rag`batlantirish kadrlar tayyorlash, ularni joy-joyiga ko`yish, ular dan samarali foydalanishda ham namoyon bo`ladi.

---

<sup>1</sup> O`sha manba. B. 65

Intellektual salohiyatning muhim yo`nalishi bo`lgan kadrlar siyosatiga to`xtalganimizda, avvalo, falsafiy, siyosiy va sotsiologik adabiyotlarda «kadr» tushunchasining mazmun-mohiyatiga doir tahlillarga to`xtalib o`tsak. O`zbek tilining izohli lug`atida kadr so`ziga quyidagicha izoh berilgan: «Kadrlar biror korxona, muassasa, partiya yoki kasaba soyuz tashkilotining tajribakor xizmatchi, ishchi va xodimlari»<sup>1</sup>.<sup>2</sup> Ammo bu ta`rifga ko`shilib bo`lmaydi. Chunki, bunda totalitar tuzumning karashlari bark urib turibdi. Bundan tashkari, bugun kadr tushunchasining mohiyati keng kamrovlidir. Shu ma`noda, unga kengrok yondashish maqsadga muvofik. Jumladan, kadrlar tushunchasiga politologiya darsligi mualliflari S.Otamuratov, I.Ergashev, Sh.Akramov, A.Qodirovlar yuqoridagi ta`rifdan ham kengrok ta`rif beradi: «Kadrlar deb dastlabki kasb tayyorgarligidan o`tgan va maxsus bilimlar, mehnat ko`nikmalari yoki tanlangan soha faoliyati bo`yicha tajribaga ega bo`lgan malakali xodimlarga aytildi»<sup>2</sup>.

Bu ta`rifdan ko`rinadiki, iqtisodiyotning barcha sohalarida band, kasbiy bilim, malakaga ega bo`lgan mehnat resurslarini kadrlar deb atash mumkin. Yuqoridagi berilgan kadrlarga ta`riflarda eng e`tibor berilgan tomoni kasbiy bilimlari va tajribalari hisoblanishi ahamiyatlidir. Bu esa, kadrlar tayyorlash va shakllantirish faqat ta`lim tizimi bilan cheklanib kolmasdan, balki bevosita amaliyotni, ishlab chiqarishni ham qamrab olishini bildiradi. Shuning uchun ham, biz kadrlar tayyorlash siyosatini tadqiq qilar ekanmiz, kadrlar shakllanishiga ta`sir etuvchi ishlab chiqarishdagi shart sharoitlarni ham o`rganish lozim bo`ladi. Jamiyatdagи barcha masalalarni kadrlar xal qiladi. Kadrlar kuchli salohiyatga ega bo`lsalar, jamiyat barqaror rivojlanadi, ya`ni jamiyat ravnaqi bevosita kadrlarning bilim darajasiga bog`liq. Bu intellektual kadrlarning jamiyat intellektual salohiyatidagi o`rnini ham belgilab beradi, ya`ni ular intellektual salohiyatning bir qismi bo`lib, turli sohalarda kashfiyotlar, yangiliklar yaratish, ularni ishlab chiqarishga qo`llash va ilmiy bilimlarning jamiyatda ommalashishiga ham xizmat qiladi. Jamiyat intellektual salohiyati tarraqqiyotning real kuch- qudratiga aylanishi kadrlarning

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугъати. 2 Т. М.: Рус тили, 1981. Т.1. - Б. 485

<sup>2</sup> Политология / Отамуратов С., Эргашев И., Акрамов Ш., Кодиров А.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - Б. 56.

ilmiy, texnikaviy bilimlarni amaliyotda joriy eta olishi va takomillashtira olishi bilan belgilanadi. To`plangan ilmiy bilimlar ham intellektual salohiyatning bir qismi hisoblanadi, lekin uni harakatga keltiruvchilar ma'lum bir sohalarda mehnat qilayotgan kadrlardir.

Dastlabki mehnat taqsimoti paydo bo`lishi, ilk mehnat uyushmalari tarkib topa boshlashi bilan turli sohalarga ixtisoslashgan kadrlar vujudga kelishi jarayonlari boshlangan. Davlat tuzilmalari va siyosiy guruhlar shakllanishi jarayonlari bilan uzviy bog`lik ravishda shu jamiyatni boshqaruvchi siyosiy kadrlar ham paydo bo`lgan va ular davlat hokimiyatining amalda mavjud bo`lishi hamda takomillashuvini ta'minlab bergen. Bundan davlat kadrlar siyosati dastlab jamiyatni boshqaruvchi, davlat xizmatini bajaruvchi kadrlarni tayyorlash, tanlash, joy-joyiga ko`yish va ulardan foydalanish sifatida vujudga kelgan deyishimiz mumkin. Chunki, diplomatik aloqalar, davlat ma'muriy boshqaruv apparatidagi yozishmalar, soliklar yig`ishda hisob-kitob ishlari, kanallar, suv inshootlari, jamoat binolarini kurish, savodli, ma'lum bir tayyorgarlikdan o`tgan kishilarni talab kilar edi. Bu jarayon jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar, jarayonlar rivojlanib, takomillashib yuqori bosqichlarga ko`tarilib borishi bilan bog`lik ravishda yuz bergen.

An'anaviy davlat boshqaruvi davrida kadrlar siyosati mamlakat boshqaruv tizimi doirasida amal qilar, amaliy boshqaruv usullariga asosan boshqaruv kadrlari tanlanar edi. Ko`proq ijtimoiy kelib chiqishi, boyligi, xarizmatik belgilariga e'tibor berilardi.

Davlat boshqaruvi ilmiy bilimlarga asoslangan XX asrga kelib esa kadrlar siyosati jamiyatning barcha jabxalarini qamrab oldi. Mamlakat rivojlanishi turli sohalardagi kadrlarning ilmiy bilimlariga tayanilishi anglab etildi. Boshqaruv tizimida intellektual kadrlarni qo'llab-quvvatlash, ularga alohida e'tibor berish boshlandi. Jamiyatni boshqarishda boshqaruvning ilmiy usullariga o`tildi.

Kadrlar siyosati amalga oshirilishi davomida shaxsga yoshligidan boshlab zamonaviy bilimlar beriladi va mafkuraviy tarbiya nazorati ostiga olinadi. O`quv

va tarbiya dasturlari tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy hamda mafkuraviy sifat darajasini oshirish maqsadida yaratiladi, ular hukmron tuzum manfaatlarini ro`yobga chiqarish mazmunini ifodalaydi. Kadrlar ruxiyatiga insonparvarlik, milliy g`urur, vatanparvarlik, ezgulik tuyg`ularini singdirish vositasida ularning sadoqatlilik darajasiga erishiladi. Hukmron sinfning g`oyaviy ta`limoti ham kadrlar tayyorlashga o`ziga xos ta`sir ko`rsatadi. Masalan, sobiq sovet Ittifoqida sotsializm ta`limoti, Germaniyada natsistlar ta`limoti yoki islom davlatlarida islom ta`limoti kadrlar tayyorlashga turli darajada ta`sir ko`rsatgan va ko`rsatib kelmoqda.

O`quv muassasalarida kimlar va kimlarning farzandlari real, amalda ta`lim-tarbiya olib, mutaxassis kadr bo`lib etisha olishi imkoniyatlarini davlat siyosiy tuzumi belgilab beradi. Ya`ni kadrlar tayyorlash tizimida va kadrlardan foydalanishda davlat siyosiy tuzumi demokratik yoki nodemokratik ekanligi aks etadi.

Masalan, sobiq sovet tuzumining dastlabki yillarida madaniy inqilob deb atalmish ma`naviy to`ntarish jarayonida butun xalq savodxonligini «ko`tarish» siyosati olib borilib, asrlar davomida to`plangan ma`naviy salohiyat barbod qilindi va zo`ravon tuzum manfaatlariga xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlash amalga oshirildi. Bunda, ayniqla, jamiyatning ma'lum bir qismini tashkil qilgan boylar va o`rtahol dehqonlar (quloqlar nomi bilan) imkoniyatlari cheklandi. Keyinchalik Stalin g`oyasiga asosan "yagona sovet millatini yaratish" niqobi ostida faqat rus tilini yaxshi biluvchi kadrlar boshqaruvga olindi, bu bilan esa milliy manfaatlar toptaldi. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlaridagi ta`lim tizimining xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, barcha fuqarolar zamonaviy ta`lim olishda teng huquqli ekanliklari qonunlarda yozib qo`yilgan va ta`lim tizimida ham bozor iqtisodiyoti tamoyillari, aynan tovar-pul munosabatlariga amal qilinadi.

O`zbekistonda rejali davlat iqtisodiyotidan voz kechgandan keyin bozor iqtisodiyotiga o`tishni va mustaqillikning ilk qadamlaridayoq huquqiy jihatdan fuqarolik jamiyati, siyosiy jihatdan demokratik davlat qurishni o`z oldiga maqsad

qilib qo`ydi. O`zbekiston istiqbol sari dadil kadam tashlar ekan, uning maqsadlari mohiyati yuritilayotgan kadrlar siyosatida ham namoyon bo`lmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jamiyatning intellektual salohiyati doimiy shakllanish va rivojlanish jarayonida mavjud bo`ladi. Uning o`z shakllantirish manbalari bo`lib ular ta`lim-tarbiya, ta`lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar, fan, ma'rifiy targ`ibotlar kiradi. Ushbu manbalarning ichki imkoniyatlarini ishga solib, doimiy faollashtirilib turilishi kerak bo`ladi.

Jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi qator omillar borki, ular ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlар, shart-sharoitlar va imkoniyatlar dan tashkil topgan bo`ladi. Ularni ijobiy va salbiy omillarga bo`lib, ijobiy ta`sir etuvchi omillarni rag`batlantirib, salbiy ta`sir etuvchi omillarni bartaraf qilib borish zarur hisoblanadi. Ular to`g`risida esa navbatdagi boblarda to`xtalib o`tamiz.

## **II. BOB INTELLEKTUAL SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

### **2.1. Ishlab chiqarish va intellekrual salohiyat munosabatlari: o'zaro ta'siri va rivojlanish tendensiyalari**

Ishlab chiqarish kadrlar sifatini yaxshilashning belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Chunki, kadrlarning malakasi, ko`nikmasi va qobiliyati ishlab chiqarish jarayonida namoyon bo`ladi. O`zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da: «Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo`nalishi, darajasi va mikyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta`limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baxo beradi»,<sup>1</sup> — deb ko`rsatib o`tilgan. Shu nuqtai nazardan kadrlar tayyorlash sifatini oshirish omillarini tadqiq qilganimizda ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimiga ta'sirini o`rganishimiz, mamlakatimizga xos xususiyatlarini tahlil qilishimiz amaliy ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish bevosita xalq xo`jaligi mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilib moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo`linadi. Ularga sanoat, qishloq xo`jaligi, ta`lim sohasi, sog`liqni saqlash, madaniy sohalar kiradi. Tayyorlanayotgan kadrlar aynan shu xalq xo`jaligining turli sohalarida mehnat qiladi va ishlab chiqarishning keyingi taqdiri tayyorlangan kadrlar sifatiga bog`liq bo`ladi. Qolaversa, «inson aql-zakovatiga bevosita ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaralgan joyda etarli darajada yuqori farovonlik va ijtimoiy himoyalanish kuzatiladi».<sup>2</sup> Ya`ni ijtimoiy farovonlikni yaratish kashfiyotlarning qilinishi va ularning amaliyotga joriy qilinishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot orqali ta'minlanadi. Bu esa, ta`limning izchilligi, yangi bilimlarning taraqqiyoti va jamiyatni intellektuallashtirish orqali amalga oshiriladi.

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. 3 bob 5 paragraf. Oliy ta`lim. Me'yoriy xujjatlar to`plami. —Toshkent: Sharq, 2001. — B. 42.

<sup>2</sup> Охунова Г. Жамият, таълим ва кадрлар // Жамият ва бошқарув. -Тошкент, 2003. - №1. - Б. 17.

Shu bilan birgalikda, «yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun oliy o`quv yurti ishlab chiqarish bilan mustahkam aloqada bo`lishi kerak. Bu esa, o`z navbatida, insonning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda yangi bilim va kasbiy ko`nikmalar orttirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, uzlusiz ta`lim XXI asr inson sivilizatsiyasining zarur talabidir».<sup>1</sup> Chunki, ishlab chiqarishga uzlusiz yangi texnika-texnologiyalar joriy qilinmoqda va u doimiy rivojlanishda.

Darxaqiqat, «Jamiyatning moddiy-texnik bazasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarkibiy elementi bo`lib, ularning boshqa bir elementiga – yumushchiga, uning madaniy kamolotiga, intellektual va irodaviy sifatlariga muayyan talablar qo`yadi».<sup>2</sup> Shuning uchun, davrdan, taraqqiyotdan orkada kolmaslik zaruriyati oliy o`quv yurti yoki kasb-hunar kollejlarida professor-o`qituvchilar va ularda ta`lim olayotgan talabalar mutaxassisliklari bo`yicha ishlab chiqarish bilan aloqalarni mustahkamlashi zarur hisoblanadi. Bir tomondan, bu yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy qilishni bildirsa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish talab-ehtiyojlarini o`rganish zaruratidan kelib chiqadi. Bu vazifani to`la ta`minlash oliy o`quv yurti va kasb-hunar kollejlari zimmasiga mas`uliyat bo`lib yuklanadi.

Umuman olganda, ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimi bilan to`g`ridan to`g`ri va teskari ta`sir ko`rsatish xususiyatiga ega bo`ladi:

- birinchisi, yuqorida aytib o`tganimizdek, ishlab chiqarish rivojlanishi tayyorlangan kadrlar sifatiga bog`lik bo`lishini ko`rsatsa;
- ikkinchisi, ishlab chiqarish kay darajada rivojlanganligi kadrlar tayyorlashga belgilovchi ta`sir ko`rsatadi. Ya`ni iqtisodiyot, ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan bo`lsa, bu tayyorlanayotgan kadrlar sifatiga ijobjiy ta`sir ko`rsatadi, insonlarning moddiy farovonligi yaxshilanadi.

Ma'lumki, shaxs shakllanish jarayonida o`z hayotiy ehtiyojlarini va ularni qondirish manbalarini o`rganib boradi. Yosh avlod qaysi jamiyatda yashasa, o`sha jamiyat urf-odatlari, an`analari bilan birga xo`jalik yuritish usullarini ham

<sup>1</sup> Абдуллаев Ю. Жаҳон таълими ислоҳ талаб этади // Мулокот. - Тошкент, 2002. - №2. - Б. 9.

<sup>2</sup> O'sha manba. B. 42.

o`zlashtirishga intilib voyaga etadi. Shuning uchun ham, qoloq mamlakatlarga karaganda rivojlangan mamlakatlarda ilmiy bilimlarni o`zlashtirish, savodxonlik ancha yuqori. Qolaversa, kadrlar tayyorlash faqat ta`lim tizimi bilan cheklanib qolmaydi, balki ishlab chiqarish jarayonlarida ham davom etadi. Kadrlar ishlab chiqarishda o`quv jarayonida olgan bilimlarini amaliyatga joriy qilishni o`rganadi, malaka, ko`nikma, yangi bilimlarga ega bo`ladilar. O`z navbatida o`quv texnikalari – kompyuterlar, multimediya, televizorlar, video va audio uskunalar, laboratoriya jihozlari mamlakatning o`zida tayyorlansa, ta`lim muassasalarini ular bilan ta'minlash osonlashadi. Ta`lim sifati esa yaxshilanadi, ta`limdagi imkoniyatlar kengayadi. Ular ta`lim tizimining moddiy bazasini mustahkamlashi o`z navbatida kadrlar tayyorlashning sifatiga ijobiy ta`sir o`tkazadi.

Ta`limning davlat tomonidan qo`llab-quvvatlanishi iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta`sir etishi masalasiga ko`pgina jahon davlatlaridagi hukumatlar befarq qaramadi. Masalan, sobiq sovet Ittifokida XX asrning 20-30 yillaridagi savodsizlikni tugatish diniy, milliy ta`sirga berilishga qarshi kurash, zo`ravon kommunistik mafkurani singdirish yo`lidagi vosita qilib olingan bo`lsa-da, ittifoqdosh respublikalar xalqlari hayotida kadrlar tayyorlashda bir qator ijobiy o`zgarishlarga olib keldi.

Yoki boshka bir misol, Buyuk Britaniyada ikkinchi jahon urushi davrida «qurolli kuchlarga yangi chaqirilganlarning qobiliyati testlar orqali sinab ko`rilganda, yigitlarning benihoya savodsizligi aniqlandi. Bu hol rahbariyatni larzaga soldi. Urushdan keyingi tiklanishning istiqbollari haqida qayg`urayotgan hukumat mavjud ta`lim tizimini yangidan ko`rib chika boshladи»<sup>1</sup>. Buyuk Britaniya ta`lim tizimidagi o`zgarishlar mamlakat iqtisodiy ahvoliga ijobiy ta`sir etdi, ikkinchi jahon urushi davrida izdan chikkan iqtisodiyot taraqqiyotining ta'minlanishiga ko`mak berdi.

Ta`limdagi islohotlar eng birinchi sanoat sohasining sifatli ishchi kuchi bilan ta'minlanishiga olib keldi. Shu o`rinda, Britaniya iqtisodiyotining bir jihatini

---

<sup>1</sup> O`sha manba. B. 87.

nazardan kochirmasligimiz kerak. XIX asrdayoq bu mamlakatda sanoat to`ntarishi amalga oshirilgan, ikkinchi jahon urushi yakun topgan paytda sanoat potentsiali kuchli edi. Shuning uchun, ikkinchi jahon urushi tugaganda Britaniyadagi ta`lim islohoti shakllangan sanoat sohasini sifatli ishchi kuchi bilan ta'minlashgagina xizmat qildi. O'zbekiston esa agrar-industrial davlat, mahalliy sanoatning qudratli kuchini ko`rmaymiz. Ishlab chiqarish yetarlicha rivojlanmaganligi, mutaxassislarga talabning kamligi bir tomondan, oliy o`quv yurtini tugatgan oliy ma'lumotli kadrlarning ma'lum bir qismi o`z mutaxassisliklari bo`yicha ishlamasdan, boshqa sohalarda ishlayotganligiga sabab bo`lmoqda. Albatta, bu tayyorlanayotgan kadrlar sifatiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Ikkinci tomondan esa, sanoat ishlab chiqarishining ta`lim tizimiga ta'siri kam seziladi. Natijada «mavhum ish o`rinlari» haqida talabalar tasavvuri vujudga keladi, o`z mutaxassisligini yaxshi o`zlashtirishga intilish emas, diplomga ega bo`lishga intilish shakllanadi. Qudratli sanoat korxonalari yo`qligi yoki kamligi korxonalarining o`zlariga xizmat ko`rsatuvchi ta`lim muassasalariga o`z sifat talablarini qo`ya olmasligini keltirib chiqaradiki, bu tayyorlanayotgan kadrlar sifatidan tashqari o`qitish sifatini ham pasaytirib yuboradi. Xatto oliy ta`limda faoliyat yuritayotgan professor-o`qituvchilar talabchanligining, bilim darajasining pasayishiga olib kelishi mumkinki, undan keyin ushbu xolat oliy ta`limda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida axvolning yomonlashuviga olib keladi. Bu masalaning yechimlaridan biri kadrlarga faqat mutaxassislik diplomi bo`yicha ishga olish me`yorlarini va huquqiy asoslarini ishlab chiqishdir. Buni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi tegishli qonunlarni ishlab chiqishi zarur bo`ladi.

Yuqorida ko`rsatib o`tganimiz, amerikalik olimlar Samyuel Boulz va Gerbert Gintslar ta`lim sohasida tadqiqotlar olib borib, ta`limning taraqqiyoti tufayli rivojlangan mamlakatlarda «savodsizlik mutlaq tugatildi, kishilar o`z imkoniyatlarini namoyish qilishlari uchun barcha qulayliklar yaratildi. Shunday bo`lishiga qaramasdan, ta`lim u ziyokor islohotchilar tasavvur qilganlaridek emas,

balki asosan kundalik iqtisodiy talablarni qondirish uchungina rivojlandi»<sup>1</sup>, - degan xulosaga kelgan edi. Yoki tadqiqotchi A.A.Berdishukurov: «Ziyolilar safining miqdor va sifat jihatidan o'sib borishi jamiyatning, ya'ni ishlab chiqarishning intellektual-aqliy ma'naviy mulkka bo`lgan ehtiyojidan kelib chiqadi»<sup>2</sup>, - degan xulosani beradi. Ushbu xulosalarni tahlil qiladigan bo`lsak, ishlab chiqarish qanchalik rivojlangan bo`lsa, kanchalik aqliy mehnat talab kilsa, intellektual salohiyatni rivojlantirish ehtiyoji shunchalik kuchli bo`ladi. Demak, kadrlar tayyorlashda O`zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish talablarini ham hisobga olish zarur bo`ladi. Xo`sh, O`zbekiston iqtisodiyotining bugungi kun talabi nima? Hech bir shubxasiz, bu sanoatlashishdir. Chunki, mamlakatimiz ichki bozorida ishlab chikarilayotgan tovarlar xorijiy tovarlar bilan raqobat kila olmayotgan sohalar mavjudligi, eksportda esa xom ashyo va to`liqsiz qayta ishlangan mahsulotlar sezilarli darajada ko`pligi, ishsizlikning yuqori darajadaligi, aholining ko`pchilik qismi qishlok xo`jaligi bilan shug`ullanishi bunday talabning asosidir.

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislar-ni tayyorlashni, guruhlarni va o`quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag`batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo`llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu juda ham muhim. O`zbekistonda esa bu borada ham muammoli masalalar mavjud. Bu oliy o`quv yurtlarida shartnomaviy asosda ta'lim olayotgan talabalarning shartnoma to`lovlarining narxlari va ularni to`lash shartlari masalasıdır. Oliy o`quv yurtlaridagi shartnoma to`lovlarini narxlarini qarab chiqadigan bo`lsak, u real narxlardan ancha yuqori ekanligini ko`ramiz. Bunga sababi quyidagicha:

*Birinchidan*, O`zbekistonda sanoatning kuchli rivojlanmaganligi, natijada korxonalar o`z ixtisosligi bo`yicha tayyorlanayotgan kadrlarni yetarlicha moliyalay olmayapti yoki korxonalar va ularga kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy o`quv yurtlari bilan shartnoma to`lovlarini to`lash borasida aloqalar yetarli emas.

---

<sup>1</sup> O`sha manba. -B. 57.

<sup>2</sup> O`sha manba. -B. 61.

*Ikkinchidan*, aholi katta qismi daromadlarining past darajada ekanligidir. Chunki, ular jahon standartlari bo`yicha kam daromadli sohalarda ishlashadi. Shuning uchun, ularga shartnoma to`lov shartlari narxi baland ko`rinyapti.

*Uchinchidan*, oliv o`quv yurtlari va o`rta maxsus kasb-hunar kollejlarida o`qitish to`laligicha shartnoma asosiga o`tkazilmaganligidir. Albatta, bu bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bunga esa vaqt kerak. Ushbu sabablarga nazar tashlaydigan bo`lsak, ularning birinchisi ikkinchisini keltirib chiqarayotganligini ko`ramiz. Shuning uchun, ularning barchasini biz o`tish davridagi muammolar va bozor iqtisodiyotiga milliy ishlab chiqarishning va ta`lim tizimining sekin-asta moslashayotganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda shartnoma to`lovleri yoki ta`limni moliyalash bevosita yoki bilvosita ishlab chiqarish zimmasiga tushganligini ko`ramiz. Bu mamlakatlarda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, baquvvat korxonalarining mavjudligi, rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarga sanoat tovarlarining eksport qilinishi aholi daromadlarini yuqoriliginini ta`minlaydi. Bu fuqarolarning ortiqcha qiyinchiliksiz xususiy shartnoma asosida ta`lim olishiga imkoniyat yaratib beradi. Korxonalar sifatli kadrlarga ega bo`lish maqsadida oliv o`quv yurtlariga buyurtma beradi, talabalarining kelib chiqishi emas, ularning iqtidori, bilim saviyasi, kelajakda korxonaga qay darajada foyda keltirishi bu korxonalarни qiziqtiradi. Shu maqsadda ular sifatli kadrlar tayyorlovchi oliv o`quv yurtlarini va ulardagi a`lo baxolarga o`qiyotgan talabalarini tanlab olishadi. Agar bu tanlab olingan talabalar oliv o`quv yurtini yakunlagandan keyin talabga javob bermasa, buyurtmachi korxona kelgusida bu oliv o`quv yurtiga buyurtma bermaydi.

Sanoati kam rivojlangan mamlakatlarda esa ishsizlik, aholining ma'lum bir qismi qashshoqlanishi, mamlakat iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga o`ta bog`lanib qolishi kabi salbiy xolatlarga olib kelishi mumkin. globallashtirish ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. U yer shari aholisining ko`pgina qismini ishsizlikning jiddiy muammolariga duchor etishi va ish xaqi hamda daromadlar

diparitetining (izoh Y.H.: diparitet — farqlanish, ajralish) o'sishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, demokratik institutlarning taraqqiyot va iqtisodiy siyosat ustidan nazoratini yo'qotish xavfini keltirib chiqaradi".<sup>1</sup> Masalan, "Butun dunyo bo'yicha aholining tabaqalanishi jarayoni kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. 1960 yilda 20 foiz eng boy va 20 foiz eng kambag`al davlatlarning daromadlari o'rta sidagi farq 30:1 nisbatni tashkil etgan bo`lsa, bu xolat 1990 yilda 60:1, 1997 yilda esa 74:1 darajagacha ko'tarilgan".<sup>2</sup> Lekin globallashuv jarayonlaridan ham qochib qutula olmaymiz yoki globallashuv jarayonlarida ishtirok etmaslik bitta davlatda iqtisodiy bikiklikni yoki mamlakat iqtisodiyotida avtarkiyani (avtarkiya — biror davlatning ichki siyosatda o`z-o`zini ta'minlashi) keltirib chikaradiki, uning salbiy okibatlari sobiq sovet Ittifoki, Albaniya davlatlarining tarixidan ma'lum. Avtarkik xo`jalikda iste'mol ehtiyojlarini qondirishda faqat mahalliy ishlab chiqarishga tayanilganligi uchun xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy a'lokalar kilinmaydi, natijada bu mamlakatga yangiliklar kirib kelishi kamayadi, xom ashyo etishmovchiligi, sifatni oshirish uchun intilish susayadi. Mamlakat iqtisodiyotida bikiklikning vujudga kelishi qoloqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Globallashuv jarayonlarida ishtirok etish ob'ektiv xakikatdir. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida globallashuv jarayonlariga faol ishtirok etish orqali ijobjiy tomonlaridan foydalanish va shu bilan birgalikda uning salbiy ta'sirlaridan himoyalanish kobig`ini yaratish kerak. Milliy istiklol g'oyasining shakllantirilishi mafkuraviy ta'sirlardan himoyalanishga xizmat qiladi. Iqtisodiy jihatdan buning eng qulay, yuqori samara beruvchi yo`li sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarining yangi texnika-texnologiyalar haqidagi bilimlarni o`zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishdir.

Mustaqillikning iqtisodiy zaminlarini mustahkamlash, milliy tiklanishga moddiy baza yaratish uchun sanoatning barcha turlari va tarmoklarini zamonaviy talablar asosida barpo etishning ahamiyati juda katta. Sanoatni rivojlantirmay

<sup>1</sup> Зуннунов Ф. Глобаллашув ва жаҳон касаба уюшмалари // Мулоқот. - Тошкент, 2003. - №2. - Б. 15.

<sup>2</sup> O'sha manba. -B. 15.

hozirgi davrning eng murakkab, zamonaviy asbob-uskunalariga, mashina-mexanizmlariga ega bo`lish mumkin emas. Shuning uchun, Markaziy Osiyo davlatlariga xos bo`lgan an'anaviy sohalarni rivojlantirish yo`lidan bormasligimiz, balki mamlakat ichki bozorini tovarlar bilan to`ldirish va Markaziy Osiyo davlatlari bozorlarini egallash yo`llarini izlashimiz zarur. Hozirda O`zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar qilish uchun avtomobil yo`llari, temir yo`llar qurish, dengizlarga chiqish orqali jahonga chiqishda o`z manfaatlarini izlamoqda. Lekin avtomobil yo`llari, temir yo`llar yuqori samaradorlik bilan xizmat qilganda yoki dengizga chiqish imkoniyati bo`lganda ham O`zbekiston xom ashyo yetkazib beruvchi davlat sifatida chiqsa, mamlakat kelajak mavqeini ko`tarishga katta ta'sir etmasligi mumkin. "Chor Rossiyasi davrida bo`lganidek, sobiq sovet jamiyatni davrida ham chetga faqat xom ashyo etkazib berdik. Bizni shunga majbur qilishdi. Faqat xom ashyo ishlab chiqaradigan va sotadigan o`lka doimiy kambag`allikka giriftor bo`ladi. O`tmishning ana shu og`ir merosidan qutulmasak, qaddimizni rostlay olmaymiz".<sup>1</sup> Sanoatlashgan mamlakatlar o`zlarining mustamlakachilik va neoimperialistik siyosatlari tufayli vujudga keltirilgan uchinchi dunyo hisobiga boyib ketdilar".<sup>2</sup> Masalan, "qishloq xo`jaligi ishlarining faqat an'anaviy metodlar bilan olib borilganligi, shuningdek, eksport uchun etishtiriladigan ekinlar ekilganligi - tovar mahsulotlari nuqul eksport qilinganligi Janubiy Amerika mamlakatlarida zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga xalal berib keldi. Ular Yevropa va Shimoliy Amerikaning sanoatlashgan davlatlaridan tobora ko`proq orqada qolib ketayotganliklariga qarab, bu mamlakatlar o`zlariga etishtirib beriladigan sanoat tovarlariga bog`liq bo`lib, ularga qaramlik xolatiga tushib qolmoqdalar".<sup>3</sup> Bu borada boshqa misol ham keltirishimiz mumkin. XX asrning 70-yillarigacha Janubiy Koreya iqtisodiyoti kam rivojlangan mamlakat edi. «Yalpi milliy daromadi bo`yicha dunyo mamlakatlari ro`yxatida oxiridan to`rtinchi o`rinni egallab kelgan».<sup>4</sup> Lekin islohotlar tufayli iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlar

<sup>1</sup> Туленов Ж.,Faafurov Z. Мустакиллик ва миллий тикланиш. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996. - Б. 110.

<sup>2</sup> Гидденс Э. Сотсиология. - Тошкент: Шарқ, 2002. - Б. 595.

<sup>3</sup> O`sha manba. - B. 594.

<sup>4</sup> Quvvatov N. O'tish davri tafakkuri. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002. — B. 28.

qilindi. Xom ashyo zaxiralari cheklangan mamlakat o`z xalqining irodasiga tayanib, qat'iyat bilan zamonaviy sanoat korxonalarini bunyod etdi va jahon bozoriga 80-yillarda Janubiy sharkiy Osiyo-Tinch okeani mamlakatlaridagi to`rtta Osiyo yo`lbarslaridan biri sifatida shitob bilan kirib bordi. Jahon bozoridagi raqobat Yevropa davlatlarini birinchi marotaba rivojlanayotgan Osiyo davlatlari bilan hisoblashishga majbur kildi. Islohotlar, sanoatni rivojlantirish Koreya Respublikasi taraqqiyotiga katta ta'sir ko`rsatdi. Hozirgi kunda bu mamlakat o`z taraqqiyoti jihatidan dunyo mamlakatlari orasida o'n ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Shuning uchun, O'zbekiston sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor berishi, Markaziy Osiyo davlatlariga sanoat mahsulotlari yetkazib berishga harakat qilishi, bu borada ishlab chiqarish intellektual salohiyati imkoniyatlaridan maksimum darajada foydalanishi zarur. "Buning uchun birinchi navbatda respublikada ishlab chikariladigan juda katta miqdordagi xom ashyo va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy kismini o`z tuprog'imizda, o`z el – yurtimizda tayyor mahsulot ishlab chiqarishga jalb etish lozim". Agar da Markaziy Osiyo bozorlarini egallahsga harakat kilsak va bor imkoniyatlarni ishga solsak, ba'zi muammolarning echimi topilgan va qator imkoniyatlarga ega bo'lardik.

*Birinchidan*, biz sanoat tovarlarini ko`shni davlatlarga sotamiz, chunki, biz sanoat tovarlari etkazib bermasak, Markaziy Osiyo davlatlari qishlok xo`jaligi va chorvachilik mahsulotlarini sotib olmaydi, bunga sabab barcha ko`shni dav lat lar O'zbekistonda ishlab chikariladigan an'anaviy mahsulot larni ishlab chikaradi. O'zbekiston esa bundan voz kechishi kerak.

*Ikkinchidan*, ko`shni davlatlar iqtisodiyotini O'zbekiston iqtisodiyotiga bog`lab olamiz. Ya'ni qaysi mamlakatda odamlarning o`z imkoniyatlarini to`lik ishga solishi, izlanishi, mashakkat chekib, yangilik yaratishga undaydigan iqtisodiy boshkarish mexanizmi amal qilsa, o`sha yerda taraqqiyot yuksaladi. Bu esa, O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasida iqtisodiy aloqalar mustahkamlanishiga yordam berardi, natijada globallashuv jarayonida turli iqtisodiy silkinishlar, qudratli davlatlarning iqtisodiy ta'siridan himoyalanish

uchun bufer zona yaratishda yagona xududga ega bo`linar edi. Markaziy Osiyo hamdo`stligini tashkil qilishning iqtisodiy iplari yaratilardi. Qo`shti davlatlar esa bu hamdo`stlikda O`zbekistonning qudratli mavqeini sezib turgan bo`lar edi. Buning uchun, qo`shti davlatlar iste`mol bozorlarini muntazam o`rganib borish amaliy ahamiyatga ega. Bizga foyda keltiruvchi manbalar aynan shu bozorlarda yotibdi. Intellektual salohiyatni rivojlantirish va rag`batlantirish kadrlar tayyorlash, ularni joy-joyiga qo`yish, ulardan samarali foydalanishda ham namoyon bo`ladi.

## **2.2. Kadrlar tayyorlash, joy-joyiga qo`yish siyosatining namoyon bo`lish xususiyatlari**

Birinchi Prezidentimiz mustaqillikni mustahkamlash va kadrlarni tayyorlash, ulardan foydalanishning o`zaro bog`liqligini ta`kidlab: «Biz bugungi hayotimizning qaysi masalalari va vazifalari haqida, qaysi istiqbollari haqida gapirmaylik, boshqarish va ishlab chiqarishning barcha bo`g`inlarida - hamma narsa bugun kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi»,<sup>1</sup> - deb ko`rsatib o`tgan edilar. Chunki, o`tish davri qiyinchiliklarini qisqa vaqtarda imkon qadar kamchiliklarsiz bosib o`tish zarurati turibdi. Bunda esa kadrlar tayyorlash va ularning salohiyatidan foydalanish bilan bog`liq qator imkoniyatlar mavjud:

Birinchidan, O`zbekistonda mustaqillik yillarda ta`lim tizimi isloh qilinib, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlashga o`tilmoqda. Bu borada davlat kadrlar tayyorlash strategiyasi ishlab chiqilgan va unga izchillik bilan amal qilinmoqda. Ikkinchidan, «jahonda bosib o`tmoqchi bo`layotgan yo`ldan o`tgan va taraqqiyotning yuqori bosqichiga ko`tarilgan mamlakatlar tajribalari bor. Biz islohotlarni amalga oshirishda rivojlangan mamlakat larning o`tish davrida yo`l qo`ygan kamchiliklarini takrorlamasdan, erishilgan yutuqlarga milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan xolda ijodiy yondashib, rivojlanish imkoniyatiga egamiz».<sup>2</sup> Kadrlar tayyorlash, joy- joyiga qo`yish, ular salohiyatidan foydalanish borasida ham bunday tajribalardan ijodiy foydalanish yo`lidan borilmoqda. Uchinchidan, «bugun butun insoniyat shu jumladan, xalqimiz ham fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot va madaniy-ma'rifiy sohalarni rivojlantirishda akl-zakovati jihatidan katta salohiyatga ega bo`ldi».<sup>3</sup> Ulardan ishlab chiqarishda foydalanish, zarur paytda kasbga qayta tayyorlash imkoniyatiga egamiz. To`rtinchidan, «xalqimiz mustakil davlatni shakllantirishda ajdodlarimizdan meros bo`lib kelayotgan ulkan qadriyatlar va tajribalarga egadir».<sup>4</sup> Bunday qadriyatlar madaniy meros, tarbiyaviy qadriyatlar, ilmga intilish

<sup>1</sup> Каримов И. А. Фарзандларимиз биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта баҳтли бўлишлари шарт // Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т.7. -Тошкент: Ўзбекистон, 1999.- Б. 290.

<sup>2</sup> Политология / Отамуратов С., Эргашев И., Акрамов Ш., Кодиров А. -Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - Б. 130.

<sup>3</sup>O`sha manba.-B. 130.

<sup>4</sup>O`sha manba. -B.130.

fazilatlarini ham o`z ichiga oladi. Beshinchidan, «o`tish davri vazifalarini amalga oshirishda amaliy ahamiyatga ega bo`lgan siyosiy barkarorlik va fuqarolarning axilligini ta`minlash imkoniyatlari mavjud».<sup>1</sup> Bu ishlab chiqarishni rivojlantirish, xalqimizni bunyodkorlik ishlariga jalg qilish imkoniyatini beradi. Oltinchidan, «xalqimizda mehnatsevarlik, yaratuvchilik va vazminlik kabi xislatlar borki, ular har qanday murakkab vazifani amalga oshirishning kafolatidir».<sup>2</sup> Bu o`z navbatida, fukarolarimizga yuksak aql-zakovat talab qiluvchi ishlab chiqarish sohalariga jalg qilish mumkin ekanligini ko`rsatadi.

Umuman bunday omillar o`tish davrida kadrlarni yangi sharoitlarda ishlay olish qobiliyatini oshirish, ularni yangi sharoitlarga moslash, kadrlar dan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratib beradi. Jamiatning intellektual salohiyatini shakllantirishga ijobjiy ta`sir etuvchi omillar bilan birga salbiy ta`sir etuvchi omillar ham mavjud. Ularga korrupsiya va poraxo`rlik, karindosh-urug`chilik, kadrlar tayyorlashda va ularni joy-joyiga ko`yishdagi yuzaga kelishi mumkin bo`lgan adolatsizliklar kiradi. Bu xolatlar tayyorlanayotgan kadrlar sifatiga salbiy ta`sir etadi, sifatsiz kadrlarning tayyorlanishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga to`sik bo`ladi, oxir-okibat mamlakat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy qudratiga salbiy ta`sir etadi.

Shuning uchun, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning birinchi sessiyasida shunday degan edi: «Men bir narsaga qattiq ishonaman: yoshlarda shijoat bor, yangilikka intilish bor, ixtiro qilishga, kashfiyot yaratishga ishtiyoq bor. Lekin ularning oldida katta bir to`sinq turibdiki, bu to`sinqni ba`zan zambarak o`qi bilan ham otib qulatib bo`lmaydi. Bu to`sinqning nomi-byurokratiya, ta`magirlik, mahalliychilik, urug`chilik. O`sib kelayotgan yoshlarga qulq solishi, madad berishi lozim bo`lgan ko`p mansabdorlarda insof, diyonat yo`qligi ham shu to`sinqning bir ko`rinishidir».<sup>3</sup>

<sup>1</sup> O`sha manba. -B.130.

<sup>2</sup> O`sha manba. -B.130.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иктисадий истикболининг асосий тамойиллари // Ватан саъдагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. -Тошкент: Ўзбекистон, 1996. - Б. 37.

Kadrlar tayyorlash siyosatiga salbiy ta'sir qiluvchi xolatlardan biri korrupsiya xolati bo`lib, u jamiyat taraqqiyotiga to`sinq bo`luvchi xatti-harakatdir. Avvalo, korrupsiyaning mohiyati nimadan iborat degan savolga javob berish kerak. Korrupsiya lotincha «corruptio» so`zidan olingan bo`lib poraga sotilish, aynish, tanazzul ma'nolarini bildiradi. U o`zbek ilmiy-adabiy tiliga XX asrda kirib kelgan va biror mansabdor shaxsning o`z mansabini suiiste'mol qilishi ma'nosida ishlatilib kelinmoqda. Ikki tomlik Ruscha - o`zbekcha lug`atda «korrupsiya - amaldorni pora bilan sotib olish, poraga sotilish, poraxo'rlik»,<sup>1</sup> - deb ta'rif berilgan. Pora so`ziga esa, O`zbek tilining izohli lug`atida shunday ta'rif beriladi: «lavozimli kishiga qonundan tashqari biror ishini bitirib bergani uchun berilgan narsa yoki pul»<sup>2</sup>. Bu ta'riflardan ham ko`rinadiki, sobiq sovet davrida korrupsiya deyilganda, asosan, poraxo'rlik tushunilgan. Bu esa, korrupsiya atamasining to`liq mazmun mohiyatini ochib bera olmaydi, chunki korrupsiyaning ta'rifi faqat poraxo'rlik bilan cheklanmaydi. Masalan, Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug`at mualliflari shunday ta'rif beradi: «Korrupsiya - mansabdor shaxsning, boyish maqsadida, o`z mansabi bilan bog`lik xuquklarini suiiste'mol qilishdan iborat jinoyati». Bu ta'rifdan ko`rinadiki, korrupsiya davlat bergen mansabidan, uning vakolatlaridan foydalanib kilinadigan jinoyatdir. Shuning uchun ham, korrupsiya ilk davlat paydo bo`lgan davrlardayok paydo bo`lgan, hamma sohalarda davlat siyosati rag`batlantirish, imkoniyatlar ochib berish yo`nalishida rivojlangan davrga kelib barcha davlatlarda u yoki bu darajada korrupsiya mavjudligini ko`ramiz. Ta'lim tizimi davlat karamog`ida bo`lgan sobiq sovet Ittifokida, keyinchalik mustakil O`zbekistonda jinoyatning bu ko`rinishi gox-gox ko`zga tashlanib qolish uchun sharoit topa oldi.

Korrupsiyaning xalqaro doirada rivojlanishini oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti qaror ham chiqargan. Ushbu xalqaro tashkilot «...korrupsiyani quyidagicha ta'riflagan: 1) mansabdor shaxslar tomonidan davlat mulkini o`g`irlash, talon-taroj qilish va o`zlashtirish; 2) noqonuniy foyda olish

<sup>1</sup> Русча - Ўзбекча луғат. 2 Т. -Тошкент: Ўзбек Совет Энсиклопедияси Бош редакцияси, 1983. Т.1. - Б. 473.

<sup>2</sup> O`zbek tilining izohli lug`ati. 2 T. Toshkent: O`zbekiston. -B. 475.

uchun o`z xizmat lavozimini suiste'mol qilish; 3) ijtimoiy burch va shaxsiy ta'magirlilik, manfaatlar o`rtasidagi ziddiyat» Bu ta'rif oldingi ta'riflarga qaraganda ancha keng mazmunni anglatadi. Yuqoridagi barcha ta'riflarni jamlab quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: korrupsiya atamasi o`z ma'no-mohiyat jihatidan poraxo'rlik, o`z lavozimini suiste'mol qilish, lavozimidan foydalanib davlat mulkini talon-taroj qilish, lavozimidan foydalangan xolda karindosh-urug`lariga, tanish-bilishlariga davlat hisobidan yordam berish kabi xolatlarni kamrab oladi. «Korrupsiya vujudga kelib, u eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo`lish yoki to`g`ridan-to`g`ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu esa jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga keltiradigan salbiy okibatlar tufayli jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to`g`ridan-to`g`ri taxdiddir».<sup>1</sup> Umuman olganda korrupsiya ham jamiyat xavfsizligiga solishi mumkin bo`lgan taxdidi sababli jinoyatchilikning bir ko`rinishidir.O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «jinoyatchilik va korruksianing avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini emiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. «Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o'tishdir» degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan maxrum bo`lishiga olib boradi».<sup>2</sup>

Tayyorlangan kadrlar da esa tashabbuskorlikning bo`g'ilishiga olib kelgan yoki o`zlariga ishonchning yo`qolishiga sabab bo`lgan bo`lishi mumkin. Shuning uchun, o`z davrida Abu Nasr Forobi shunday degan edi: «Eng katta jinoyat - rahbar shaxs tomonidan qilingan jinoyatdir. Bunday xolatda boshka xokimlar uni tarbiya lash va ta'sir o`tkazish choralarini ko`rishlari kerak. Agar bunga e'tibor berilmasa, bunday jinoyatlar shahar illatlarining ko`payishiga va shaharning inkiroziga sabab bo'ladi».<sup>3</sup> Tadbirkorlar orasida ma'naviy jihatdan aynigan,

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998. - Б. 90.

<sup>2</sup> O`sha manba. - B. 91.

<sup>3</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: А. Қодирий. Халқ мероси, 1993. - Б. 42.

iqtisodiy raqobatda engib chikish maqsadida siyosiy hokimiyat richaglaridan foydalanishga harakat qilib korrupsiyani rivojlanishini rag`batlantirayotgan shaxslarning vujudga kelishidir. «O`zbek tadbirkorlarining - deydi Leonid Levitin, - huquqiy ongi favkulodda kiyinchiliklar bilan shakllanmoqda, bu sohada xususiy manfaatdorlik, makkorlik, zo`ravonlik, qanday qilib bo`lsa-da, oldinda bo`lishga intilish va korrupsiya keskin xalakit bermoqda».<sup>1</sup> Bu illatlar o`z navbatida amaliy natijalar bo`lib, ta`lim tizimiga va tarbiyaga ham ta`sirini ko`rsatmoqda. Ma'lumki, har bir shaxsning hayotida oila, mehnat jamoasi, maxalla o`z tarbiyaviy ta`siriga ega. Korrupsiyaga qarshi kurashning g`oyaviy-tarbiyaviy asoslarini to`la ishlab chikish zarur. Sobiq sovet davrida ta`lim tizimida korrupsiyaning rivojlanishi mamlakat ichidagi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatishda kam sezildi. CHunki, sovet Ittifoqi izolatsiyalangan davlat bo`lib, mamlakat ichki bozorida xorijiy davlatlar korxonalari tovarlari bilan mahalliy tovarlar o`rtasida raqobat bo`lmasdi. Mustaqillik sharoitida esa, vaziyat tub dan o`zgardi, biz mamlakat taraqqiyotini ta`minlash maqsadida mamlakat ichki bozorini himoya qilishimiz, tashqi bozorlarni egallashimiz zarur. Buning uchun sifatli kadrlar, malakali mutaxassis lar kerak. Milliy manfaatlarimizni himoya qilishimiz uchun jamiyatdagi illatlarni tugatish yo`lidan borishimiz, bu kurash yo`lida jamiyatni yagona g`oya atrofida birlashtirishimiz zarur. Milliy manfaatlarning asosida esa, alohida shaxsning erki, qadr-qimmati yotadi. «Millatningadolatli jamiyat barpo etishga bo`lgan orzu - intilishlarining amaliy ifodasi esa ana shu erkin, ruxiyati sog`lom shaxslarning aql-idroki va e`tiqodi asosida rivojlantiriladi. Millat ziylisiningadolat va xaqiqatga amal qilib yashay olishi va bunda fidoyilik namunasi jamiyatda ijtimoiy axloqning yuksalishiga, davlat siyosatining adolatparvarligiga olib keladi».<sup>2</sup>

Korrupsiyaga qarshi kurashda matbuot organlarining roldan foydalanish ham amaliy ahamiyatga ega. Lekin bu borada kamchiliklarga Birinchi Prezidentimiz

<sup>1</sup> Левитин Л., Карлайл Д. С. Ислом Каримов - янги Ўзбекистон Президенти. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996. - Б. 66.

<sup>2</sup> Алимардонов Т. Миллий руҳиятнинг ахлоқий моҳияти // Жамият ва бошқарув. - Тошкент, 2003. - №4. - Б. 13

ta'kidlaganlaridek: «...oldimizga qo'ygan marralarga erishish yo`lidagi muammolar, qiyinchilik va etishmovchiliklar, joylarda yo`l qo`yilayotgan xato va nuqsonlar, uchrayotgan to`sinq va g`ovlar, sodir bo`layotgan jinoyatlar haqida oshkora gapirish, bu to`g`rida odamlarga xaqqoniy va xolis axborot etkazishda biz hamon zaif bo`lib kelmoqdamiz».<sup>1</sup> Ushbu fikrga monand ravishda tadqiqotchi N. Umarova: «Muammolarning mavjudligiga fofia sifatida emas, odatdagি narsa deb qarashga o`rganishimiz kerak. Ularning borligini tan olishimiz, ularni hal qilishga intilishimiz lozim. Shundagina muammolarimiz kamayadi»,<sup>2</sup> — degan xulosani beradi. Biz demokratik, fuqorolik jamiyatini kurish yo`lidan borar, mamlakatimizning kudratli bo`lishini xoxlar ekanmiz, jamiyatda bunday nuksonlarning borligini aytishdan emas, yashirishdan xavotirlanishimiz kerak. «Har qanday millat o`z istikboliga to`sik bo`layotgan illatlarni ro`yi-rost tan olsagina va uni bartaraf etishga iroda kilsagina yuksaladi».<sup>3</sup> Jamiyat hayotiga, siyosiy jarayonlarga ta'sir etish maqsadida urug`-aymoqchilik asosidagi guruhbozliklarning shakllanishi o`rta asrlar-feodalizm jamiyatlariga borib taqaladi. Lekin urug`-aymoqchilik va mahalliychilik sobiq sovet davrida yangicha bir ko`rinishni oldi hamda bugungi xolatda shakllanishiga zamin yaratdi. Davlat sotsializmi va uning qattiq rejalashtirilgan iqtisodiyoti, ijtimoiy (egasiz) mulki, boyliklarning markazdan turib taqsimlanishi sharoitida «...boshqaruv xodimi o`z hokimiyatini saqlab qolish va mustahkamlash uchun atrofida ishonchli va o`ziga xayrirox odamlar bo`lishiga muxtoj edi. Shaxsiy sadoqat tamoyili uning kadrlar sohasidagi siyosatining mezonlaridan birini tashkil etardi. «Yaxshimi-yomonmi, o`g`rimi-to`g`rimi, o`zimizniki» degan aqida bu siyosatning tub negizi edi». Afsuski, bu hodisa bugungi kunda ham kadrlar tayyorlash tizimida ma'lum darajada saqlanib qolmoqda.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Инсон, унинг хукуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият // Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъruzаси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005. - Б. 7.

<sup>2</sup> Умарова Н. Мафкура тарғиботи // Тафаккур. - Тошкент, 2001. - №3. - Б. 14.

<sup>3</sup> Алимарданов Т. Миллий рухиятнинг ахлоқий моҳияти // Жамият ва бошқарув. - Тошкент, 2003. - №4. - Б. 13.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kadrlar tayyorlash tizimida korrupsiya, urug`-aymokchilik, mahalliychilikning rivojlanishi bu sohadagiadolatsizliklar yoki buadolatsizliklarni keltiribchiqaruvchi asoslardir. Sifatsiz kadrlar esa mamlakat taraqqiyotiga to`sik bo`luvchi omillar dan biri, uni keltiribchiqaruvchi korrupsiya, urug`-aymoqchilik, mahalliychilik xolat lari jamiyat xavfsizligiga taxdiddir. Korrupsiyaga qarshi kurashda uning huquqiy asoslarini qayta ko`ribchiqish; oliy ta'lim va o`rta maxsus ta'lim professor-o`qituvchilarni ijtimoiy himoyalashni yaxshilash; korrupsiyaga qarshi kurashning g`oyaviy-tarbiyaviy usullarini kuchaytirish; ommaviy axborot vositalari rolidan foydalanish va boshqa shu kabi chora tadbirlarni qo`llash katta amaliy ahamiyatga ega.

## **2.3. Fan, texnika va texnologiyalarni rivojlanishida intellektual salohiyatning imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati**

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ishlab chiqarishga fan, texnika yutuklari va zamonaviy texnologiyalarning uzluksiz joriy qilib borilishi bilan bog`liqdir. Bu esa o`z navbatida, jamiyat siyosiy va iqtisodiy hayotini erkinlashtirish, inson omilining faollashuvi, jamiyatning intellektual salohiyatidan samarali foydalanishga va ishlab chiqaruvchilar hamda kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash tizimlari o`rtasidagi o`zaro munosabatlardagi uyg`unlik, manfaatdorlik qay darajada ta'minlanganligidan kelib chiqadi. O`z navbatida bular asosida bilim va aql-idrokka asoslangan mehnat yotadi. Hamma davrlarda ham ilg`or qarashlarga ega bo`lgan kishilar tomonidan ilm va reja asosida, mushohada, aql-idrok, qunt bilan qilingan mehnatning samarasi yuqori, bilimsizlik, tajribasizlik bilan qilingan mehnatning samarasi pastligi e`tirof etilgan. O`z davrida buyuk alloma Abu Nasr Forobiy bilimsizlik, joxillik haqida shunday degan edi: «Inson yaxshi tarbiya ko`rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo`lsa, u ko`p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi»<sup>1</sup>. Natijada ular kilayotgan mehnatning samarasi kamayadi. Abdulla Avloniy ilmli, ma`rifatli kishilar va bilimsiz joxil kishilar mehnatini «toroziga solib» shunday mulohaza bildiradi: «Ilm va ma`rifat sohiblari, fazlu kamollari soyasida har bir ishni tadqiq va mushohada ila qilurlar. Ammo joxillar esa bir narsaning mohiyatini mushohada qilurg`a aql va farosatlari yetmas».<sup>2</sup> Allomaning bu fikridan mehnatning samaradorligini oshirishda inson bilimi va aql-idroki, ya`ni shaxs intellektual salohiyatidan foydalanish muhim ekanligi namoyon bo`ladi.

Kadrlarning intellektual darajasiga va ilmiy bilimlarning yaratilishida ishtiroki, bu bilimlardan ijtimoiy hayotda foydalanish yo`nalishlariga qarab ularni shartli uchta guruhga bo`lish mumkin.

---

<sup>1</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: А. Қодирий. Халқ мероси, 1993. - Б. 25.

<sup>2</sup> А. Авлоний Туркий гулистон ёхуд ахлок. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 17.

*Birinchi guruh* ijodkor, mavjud bilimlar asosida yangi kashfiyotlar yaratuvchi, fan sohalariga yetakchilik qiluvchi olimlar, muxandis texnologlar, mexaniklar, konstruktorlar. Ularni o`z salohiyati jihatdan intellektual elita deyish mumkin.

*Ikkinchchi guruh* mavjud bilimlarni va fan-texnika sohasidagi yangiliklarni ommaviylashtirishga xizmat qiluvchi, ishlab chiqaruvchilarga yetkazib beruvchilar. Bu guruh asosan ta`lim va ma`rifatchilik bilan shug`ullanuvchi ziyyolillardan tashkil topadi.

*Uchinchi guruh* fan va texnika yutuqlaridan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotda va ishlab chiqarishda foydalanuvchilar.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi ana shu guruhlardan omilkorlik bilan foydalanishga bog`liq bo`lib qolmoqda. Shuning uchun, davlat siyosatida ushbu yo`nalishlarda intellektual salohiyatni oshirish uchun alohida yondashuv talab etiladi. Masalaning mohiyati shundan iboratki, mehnatga yaroqli aholining katta qismi fan va texnika yutuqlaridan foydalanuvchilardir. Ularning mehnat bilan band bo`lishi, mehnat samaradorligining oshirilishi, sifatlari hamda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishi kashfiyotchilar, texnika-texnologiyalarni yaratuvchilar va ana shu texnika-texnologiyalarni ommaviylashtiruvchi, ular haqida ta`lim beruvchi guruhlarni to`g`ri va to`liq safarbar qilinishi bilan bog`liq. Shuning uchun, yuqorida uchta guruhning fan va texnologiyalar rivojlanishida, amaliyatga joriy qilinishida roli qanday, muammolari nimadan iboratligini o`rganishimiz hamda tahlil qilishimiz kerak bo`ladi.

Intellektual elitaning mavjud bo`lishi, shakllanish va undan foydalanish jarayonlari bilan uzviy bog`liqlikda yuz beradi. Uning shakllanishida tashkiliy tuzilmalarning o`rni alohida. Tashkiliy tuzilmalarni ham shartli ravishda ikki qismga bo`lish mumkin.

*Birinchisi*, davlat siyosiy maqsadlari asosida tashkil qilingan tuzilmalar «Baytul Hikma», «Ma`mun akademiyasi», «Sarbonna universiteta» va boshka davlat tomonidan tashkil qilingan institut, universitetlar, ilmiy tadqiqot larni

qo`llab-quvvatlovchi davlat tashkilotlari. Zamonaviy davlatlarning ko`pchiligi ilm-fanning taraqqiyotdagi ahamiyatini hisobga olib unga grantlar ajratadi va qo`llab-quvvatlaydi.

*Ikkinchisi*, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida xususiy tashabbuslar natijasida vujudga kelgan tuzilmalar. Masalan, Chig`atoy gurungi, Rim klubi va boshka ilmiy tadqiqot tashkilotlari. Bunday tashkiliy tuzilmalar ilmiy baxs-munozara va muloqot muhitini shakllantiradi, tashkiliy tuzilmalar faoliyatiga yetakchilik qilish, tashkilotchilik vazifalarini ma'lum bir kishilar bajaradi. Bu esa ana shu bir guruh kishilarni ilmning turli sohalari bo`yicha elitalashtiradi. Yetakchi olimlar boshchiligidagi ilmiy maktablar shakllanadi, bu esa o`z navbatida, yosh olimlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. «Yosh tadqiqotchilar ustozlarning kuchiga juda ko`p xollarda ehtiyoj sezadiki, uni kitobdan olib bo`lmaydi, faqat shaxsiy munosabat va amaliy maslaxatlar orqali olish mumkin. Bundan tashkari, fanda faqat uning keyingi rivojlanishi emas, balki olingen bilimlarni saqlash jarayoni ham yuz beradi. Ilmiy merosda to`plangan nazariy bilimlar va bilish metodlari, ilmiy muassasa va an'analar majmuasi fanning amaliy zaxirasi hisoblanadi». Intellektual elitaning shakllanishi vorisiylik asosida yuz beradi, shu vorisiylikda qobiliyatli kishilar saralab olinmasa uning taraqqiyotida turg`unlik xolati kuzatiladi, jamiyat taraqqiyoti talab lariga javob bermay qoladi. Kashfiyotchilik, fan sohasidagi aytilayotgan fikrlar va g`oyalar ustozlar berayotgan yo`nalishlar bilan «cheqlanish» holati yuzaga kelishi, xatto «fan-fan uchun» qoidasiga amal qilish darajasiga tushishi mumkin. Shuning uchun, fan sohalari bo`yicha qobiliyatli tadqiqotchilar doimiy qidirib topilishi va tarbiyalab borilishi zarur bo`ladi.

Qilinayotgan kashfiyotlar, nazariyalar, ilm-fan yutuqlari, texnologiyalar amaliyotga joriy qilinishi ham ziyolilarni ma'lum bir sohalar bo`yicha elitalashtiradi. Ya`ni jamiyat tomonidan «saralangan ziyoli» sifatida tan olinishiga olib keladi. Uning asosida esa foyda, ma'lum bir mavqega ega bo`lish manfaati yotadi. Mana shu foydani olish va mavqega ega bo`lish odamlarni harakatga

undaydi, ilmiy bilimlarni o'rganish, aqliy qobiliyatni ishga solishga, soha bo'yicha yetakchilik qilishga safarbar etadi. Lekin tafakkur va aqliy mehnat natijalarining jamiyat tomonidan tan olinishigina ziylolilarni elitalashtiradi. Ba'zan shunday g'oyalar, kashfiyotlar yoki san'at asarlari bo`lishi mumkinki, u kashf qilingan va yaratilgan paytda e'tibor berilmasligi, uni yaratgan kishilar ham jamiyat diqqat e'tiborida bo`lmashigi mumkin. Elitalashish jarayoni ham ma'lum bir zamon va makonda aqliy mehnat natijalariga bo`lgan ehtiyoj bilan birga yuz beradi. Agar yaratilgan kashfiyotga o`z vaqtida ehtiyoj bo`lmasa unga insonlar befarq qarashi, qachon unga ehtiyoj vujudga kelsa, bu kashfiyotning ahamiyati anglab etilishi, kashfiyotchi ham ulug`lanishi mumkin. Bu jamiyatning umumiyl intellektual salohiyati darajasi, qanday ishlab chiqarish usullaridan foydalanayotganligi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning qanday shakllanganligi bilan bog'lik.

O'zbekistonda ham intellektual elita mavjud bo`lib, u turli fan sohalari bo'yicha shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, tibbiyot fanlari, texnika fanlari, biologiya va qishloq xo`jaligi fanlari, iqtisod fanlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar va hakozo. Ularning shakllanishida tashkiliy tuzulmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, ilmiy tekshirish institutlari va oliy ta'lim muassasalari faoliyatları asosiy o'rinni egallaydi. Mustaqillik yillarida «2005 yilning 1 dekabriga kadar, respublikamizda 1509 ta fan doktori va 7442 ta fan nomzodi tayyorlandi».<sup>1</sup> 2015 yilda esa respublikamizda 2111 ta fan doktorlari, 8360 ta fan nomzodlari tayyorlandi.<sup>2</sup> Oliy attestatsiya komissiyasi ma'lumotlaridan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar, ya'ni fan doktorlari va fan nomzodlari tayyorlash sobiq Ittifok davriga nisbatan sezilarli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin. «1992 yilda respublika bo'yicha 1300

<sup>1</sup> Sultonov K.S. Dissertatsiya ishlari saviyasi va ularning natijalarini amaliyotga tatbiki xakida // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining byulleteni. - Toshkent, 2005. - №6. - B. 3.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalı

ga yaqin fan doktori ishlab turgan bo`lsa, hozir esa (izoh H.Y.: 2005 yil 1 dekabr) 3000 ga yaqin fan doktori ishlab turibdi. Fan nomzodlarining soni ham qariyb ikki barobar oshdi».<sup>1</sup> «Respublikamizda har yili 300-400 talabgor ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatlarining muhim ahamiyatga ega bo`lgan natijalari asosida katta ilmiy xodim, dotsent va professor ilmiy unvonlariga sazovor bo`lmoqdalar»<sup>2</sup> Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik kadrlar bilan ta’milish darajasi ko`rsatkichlariga qaraydigan bo`lsak “2005 yil dekabrda 61 ta oliy ta’lim muassasida 21467 ta pedagog kadr ishlagan holda 7386 ta fan nomzodi, 1666 ta fan doktori faoliyat yuritgan. Umumiy 64 ta Respublika oliy ta’lim muassasalarida 22228 ta o`qituvchi ishlaydi, shulardan 42,8%i ilmiy daraja va unvonga ega”.<sup>3</sup> Respublika bo`yicha fan doktorlari va nomzodlarining 74 foizdan ko`prog`i oliy o`quv yurtlarida ishlaydi.

O`zbekistonda ham intellektual kuchlarni safarbar qilish va ulardan bozor iqtisodiyotida foydalanishga davlat siyosati darajasida e’tibor berilmoqda. 1992 yil 18 fevralda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo`mitasini tashkil etish to`g`risida» 345-Farmoni e’lon qilingan edi. Bu boradagi ishlarning yangi bosqichga ko`tarilishida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldagagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish to`g`risida»gi 3029-Farmoni va Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 4 martdagagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 77-qarori muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Prezident farmoni «O`zbekiston ilmiy va texnologik salohiyatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi islohotlarning strategik vazifalari va ustuvor yo`nalishlariga muvofiq holda mamlakat ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini ta’milash, olib borilayotgan ilmiy

<sup>1</sup> O`sha manba. - B. 4.

<sup>2</sup> O`sha manba. – B.4.

<sup>3</sup> O`sha manba. –B. 4.

tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar saviyasi sifati va samaradorligini oshirish ulardan amaliyotda keng foydalanish maqsadida»<sup>1</sup> qabul qilindi.

Farmonga ko`ra fan-texnika faoliyatini tashkil etishning yangi tuzulmasi shakllantirildi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida Ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish kengashi tuzildi, Muvofiqlashtirish kengashi qoshida uning ijroiya organlari sifatida Fan va texnologiyalar markazi va Yirik ilmiy va investitsiya loyihalarini ekspertizadan o`tkazish kengashi hamda investitsiya loyihalarini moliyalash maqsadida Innovatsiya ilmiy-texnika faoliyatini mablag` bilan ta'minlash jamg`armasi tashkil etildi. Bu «Fanlararo va idoralararo to`sqliarga barham beradi, ilg`or g`oyalarni tashuvchi, istiqbolli natijalarni mamlakat manfaatlari yo`lida foydalanish uchun jamlash uquviga ega bo`lgan iste'dodli olimlarni to`g`ridan-to`g`ri qo'llab-quvvatlash va rag`batlantirish uchun yo`l ochadi», - deb hisoblandi. Shu ma'noda, OAK tomonidan amaliy ahamiyatga molik dissertatsiyada aniq muammoning yechimi va muallif erishgan ilmiy natijalardan amaliyotda foydalanilganligi to`g`risida ma'lumotlar, nazariy ahamiyatga molik dissertatsiyada esa ilmiy xulosalardan foydalanishga doir tavsiyalar berilishi lozimligining belgilab qo'yilishi ham intellektual kuchlarni mamlakat taraqqiyotiga safarbar qilishning bir vositasi hisoblanadi. Lekin amalga oshirilayotgan ishlarga qaramay, ilmiy-texnika salohiyatining rivojlanish darajasi ortib borayotgan talablarga, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar sur'atlariga to`liq javob bermay qolayotganligi ko`rinib qoldi. Shuning uchun, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagи «Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori qabul qilindi. Prezidentning ushbu qarori qator muammolarni bartaraf etish maqsadlari bilan bog`liq edi. Shuning bilan birgalikda, intellektual elita kuchlarini ishlab chiqarish uchun texnika va uskunalar tayyorlash, yetkazib berishga yo`naltirish, safarbar qilish globallashuv jarayonlarining salbiy ta'siridan

<sup>1</sup> «Ilmiy-tadqiqot faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // «Xalq so`zi» gazetasi, 2002 yil 15 mart. – B. 1.

himoyalanish uchun ham zarur. Bu borada kadrlarni tayyorlash, saralash, ulardan foydalanish maqsadida Respublika injener-konstrukturlik akademiyasini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Bu akademiyada tayyorlangan kadrlar xorijdan kirib kelayotgan texnika-texnologiyalarni o'rganish, takomillashtirish hamda mamlakatimizda ularning o'rnini bosa oladigan texnika-texnologiyalar ishlab chiqarilishiga yetakchilik qilishi mamlakat rivojida strategik ahamiyatga egaligini hisobga oladigan bo`lsak, uni tashkil qilishdan keladigan samara ham ayon bo`ladi.

O'zbekistonda o'tish davri sharoitida fan, texnika-texnologiyalarni rivojlantirish ularni amaliyotga joriy qilish jarayonlari bilan ham bog'liqdir. Bunda fan, texnika-texnologiyalarga talabni oshirishning ulardan foydalanuvchilar malakasini oshirish va maqsadli kadrlar tayyorlash yo`li bilan erishish imkoniyati mavjud. “Iqtisodiyotning real sektori talablaridan kelib chiqib, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish yo'nalishlari va ixtisosliklari bo'yicha o'qishga qabul qilish, uning umumiy soniga nisbatan 23 foizdan 33,2 foizga oshdi”<sup>1</sup>.

Prezidentimiz tomonidan “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi chiqarilgan qarorga muvofiq mamlakatimiz Prezidenti tomonidan har bir oliy ta'lif muassasasi bo'yicha quyidagi konkret parametr va ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan manzilli rivojlantirish dasturlari tasdiqlandi:

- oliy ta'lif tizimida yangi ta'lif ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarning, shuningdek, iqtisodiyot sohalari va hududlarni kompleks rivojlantirishning joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va bakalavriat va magistraturaga talabalar qabul qilishning umumiy ko'rsatkichlarini 2021 yilgacha bosqichma-bosqich ravishda 18 foizgacha oshirishni nazarda tutadigan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan parametr va ko'rsatkichlari;

- o`quv binolari, talabalar turar joylari, axborot-resurs markazlari va boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash hisobidan yangi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республиеаси Президентининг“Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПК-2909-сон // Халқ сўзи 2017 йил 21 апрелдаги 79 (6773) сони.

o`quv o`rinlarini tashkil etish, yangi o`quv-laboratoriya komplekslarini sotib olish, auditoriyalarni kompyuter texnikasi bilan jihozlash;

– professor-o`qituvchilarning kasb mahoratini, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, shuningdek, ularning xorijiy hamkor oliy o`quv yurtlarida malaka oshirishi, magistratura, doktoranturada ta'lif olishi hamda respublikamizning tayanch oliy o`quv yurtlari qoshida qayta tayyorgarlikdan o`tishi va malaka oshirishi;

– mamlakatimizning har bir oliy ta'lif muassasasi bilan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy-ta'lif muassasalari bilan hamkorlik aloqalarining o`rnatilgani o`ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili 350 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarning mamlakatimiz oliy o`quv yurtlariga o`quv jarayoniga jalb etilishi ko'zda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda kichik va o`rta biznesni rivojlantirish hamda ishsizlikka qarshi kurash yo`nalishida xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi texnika-texnologiyalarni o`rgatuvchi va ulardan foydalanuvchi mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlashning maqsadli rejalashtirilgan Respublika markazlashgan dasturlarini ishlab chikish lozim.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo`mitasi, O`zbekiston Respublikasi patent idorasi va ilmiy tekshirish institutlari ilmiy salohiyatidan foydalanish imkoniyati mavjud. Xom ashyoni qayta ishlovchi asbob-uskunalar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni o`rgatishga intellektual kuchlarni yo`naltirish orqali ishsizlikka qarshi kurashish mumkin.

## XULOSA

Jamiyatni yangilash va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishda amalga oshirilayotgan keng islohotlar, siyosiy tizimni yangilash, huquqiy demokratik davlatni shakllantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada to'laroq ta'minlash, shaxs uchun qonunlarni buzishdan ko'ra unga amal qilishni rag`batlantiruvchi huquqiy tizimni yaratish yo`lida mamlakatimizda juda muhim ishlar amalga oshirilmoqda

2017 yil 21 apreldagi “Oliy ta'lism tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida” PQ-2909-sonli Prezident qaroriga muvofiq mamlakatimizda intellektual salohiyatni rivojlantirish bo'yicha aniq dastur ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq qilinishi boshlab yuborildi. Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar oliy ta'lism tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

- oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lism muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutahassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish;
- pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy hodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lism muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o`qitish;
- oliy ta'lism muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lism tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integrasiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug`ullanishga jalb etish.<sup>1</sup>

Ushbu qarorning qabul qilinishi oily ta'lism tizimida tub o'zgarishlar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lism tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g'risida”gi qaroriga sharh. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

bo'lishini va ta'limning sifatini oshishidan dalolat bermoqda. Zero, mamlakatimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekanligi hisobga olinsa bu tabiiy xoldir.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotga nechog`li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog`liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak"<sup>1</sup>. Biroq keyingi paytlarda jamiyatimizda yaqqolroq namoyon bo'lib borayotgan deviant holatlar, ushbu vazifalarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur muammolarni ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi:

**Birinchidan**, ma'lumki, jamiyatda insonlararo munosabatlarni ijtimoiy me'yorlar tartibga solib turadi. Aynan ana shu ijtimoiy me'yorlar shaxsga ma'lum hayotiy jarayonlarda o'zini qanday tutish lozimligini ko'rsatib turadi. Biroq shunday shaxslar borki, ularni jamiyatda joriy etilgan me'yorlar qoniqtirmaydi. Natijada, ular ushbu me'yorlardan chetga chiquvchi xatti-harakatni amalga oshiradilar. Bunaqa shaxslarning har qanday zamon va makonda mavjudligi, deviant holatlarni o'rganish va uni oldini olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni jamiyatning doimiy dolzarb muammolari qatoriga olib chiqadi.

**Ikkinchidan**, maxsus o'rganishlarning ko'rsatishicha, deviant xulqli yoshlarning aksariyati, dastlabki salbiy xatti-harakatini aynan o'smir yoshida sodir etishadi, ya'ni birinchi marta ichkilik yoki giyohvand vosita iste'mol qilishadi, jinoiy xatti-harakatga qo'l uradi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda deviant xulq-atvorning oldini olish uchun ko'proq o'smir-yoshlar orasida yuz berayotgan deviantlik holatlariga e'tiborni qaratish lozimligini ko'rsatadi.

**Uchinchidan**, yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega avlodgina xalqimiz erishgan mustaqillikni asraydi, ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'shadi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Kari-

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Биз келажагимизни шз қўлимиз билан курамиз. Т. 7. - Т. 1999. - Б. 385.

mov ta'kidlaganidek: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka, tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”<sup>1</sup>.

**To`rtinchidan**, jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, foxishabozlik kabi illatlarning yoshlarimiz orasida xanuzgacha saqlanib qolayotganligi va shular bilan bog`liq ravishda ro`y berishi mumkin bo`lgan ko`ngilsiz hodisalar sodir bo`lish ehtimolining yuqoriligi mazkur muammoni maxsus ilmiy tadqiqot konsepsiysi sifatida o`rganishni taqozo etadi.

Har bir davlat o'z iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishini ta'minlash hamda umum davlat manfaatlari, maqsadlaridan kelib chiqadigan vazifalar, muammolar va ularni hal qilish bilan bog`liq bo`lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan shug`ullanishga majbur bo`ladi. Bunday chora-tadbirlarni amalga oshirishda jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish katta ahamiyatga ega. Bir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchi bir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida amalga oshiriladigan barcha tarkibiy o`zgarishlarning muvaffaqiyatli chiqishi kadrlarning intellektual salohiyatiga bog`liq. O'tish davrida kadrlar tayyorlash muammolarini o`rganishning yana bir ahamiyatli tomoni yangicha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllanishini hisobga olgan holda muammolar yechimini topishdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi muammolar hamda ularni echishda davlat siyosatining o`rni va ahamiyati tahlil qilindi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -4 b.

Bitiruv malakaviy ishda quyidagi tahliliy natijalarga erishildi. Jamiyat rivojlanishida, jumladan, o`tish davrida intellektual salohiyat muhim belgilovchi omil sifatida namoyon bo`ladi. Jamiyatning intellektual salohiyati ziyorilar bilan cheklanmaydi, balki, jamiyat taraqqiyoti natijasida to`plangan bilimlar, ilmma'rifat, ixtiolar, ilmiy bilimlarni ishlab chiqarishga joriy qilish hamda zamonaviy binolarni qurish qobiliyati, ilmiy uskuna, jihozlar va hokazolardan tashkil topadi. Ziyorilar jamiyat intellektual salohiyatining o`zagi va uni harakatlantiruvchi faol qismi hisoblanadi. Uning o`z-o`zini shakllantirish, jamiyatni iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanirish, bozor iqtisodiyotida intellektual mulk sifatida namoyon bo`lish xususiyatlari mavjud. Jamiyat intellektual salohiyati o`z shakllanish manbalariga ega bo`lib, ular ta`lim-tarbiya, ta`lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar, fan, ma'rifiy targ`ibotlar kiradi. Ushbu manbalarning ichki imkoniyatlarini ishga solib doimiy faollashtirilib turilishi kerak bo`ladi. Shu bilan birga, jamiyatning intellektual salohiyati ziyorilar va davlat, ziyorilar va ishlab chiqarish, ziyorilar va xorijiy davlatlar o`rtalaridagi madaniy munosabatlar asosida shakllanadi. Ushbu munosabatlar asosida jamiyatning intellektual salohiyati shakllanishi va rivojlanishiga ta`sir qiluvchi qator omillar shakllanadi. Ular ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, shart-sharoitlar va imkoniyatlardan tashkil topgan bo`ladi. Ularni ijobiy va salbiy omillarga bo`lib, ijobiy ta`sir etuvchi omillarni rag`batlantirib, salbiy ta`sir etuvchi omillarni bartaraf qilib borish zarur hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan quyidagi xulosalarni keltiramiz:

- O`zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan ishlab chiqarish intellektual salohiyatining shakllantirilishga bog`liq.
- Jamiyat intellektual salohiyatining o`zagini ziyorilar tashkil etsa-da, intellektual bilimlarni yaratish, uni targ`ib qilish, tarqatishda ta`lim muassasalari, ulardagi moddiy-texnik baza, ilmiy bilimlarni tarqatish vositalari ham alohida o`ringa ega, shuning uchun, jamiyatning intellektual salohiyati atamasi ishlatilganda ziyorilar bilan birga mavjud ta`lim va ilmiy muassasalar, ularning

moddiy texnik bazasi, turli axborot va informatsiyalarni yetkazish vositalari ham tushunilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

- Jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish vorisiylik, ilmiy kashfiyotlarning qilinishi, ma'rifiy targ'ibot va boshqa xalqlardan ilmiy, ma'naviy, ma'rifiy bilimlarni o`zlashtirish asosida shakllantiriladi va u O'zbekiston sharoitida quyidagi tarzda namoyon bo'lmoqda:

*birinchidan*, ilmiy tadbirkorlar tufayli qilinayotgan kashfiyotlar;

*ikkinchidan*, yangi tadqiqotlar tufayli yaratilgan ilmiy bilimlarni tayyorlanayotgan va iqtisodiy faoliyat yuritayotgan kadrlarga yetkazib berish;

*uchinchidan*, uzoq tarixiy davrlarda yaratilgan ilmiy bilimlarni yanada takomillashtirish;

*to`rtinchidan*, umumjahon miqyosida yaratilgan ilmiy bilimlarni o`zlashtirish.

Jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda bir qator omillar ishtirok etadi, lekin ular orasida davlat siyosati belgilovchi va muvoffiqlashtiruvchi rol o`ynaydi va jamiyat intellektual salohiyatidan mamlakat manfaatlarini himoya qilishda foydalanadi. Shuning uchun, davlat kadrlar siyosati va ta'lim siyosatini olib boradi.

Ushbu bitiruv ishda aytilgan fikrlar va unda keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, shunday takliflar kiritamiz:

- Jamiyatning intellektual salohiyati tushunchasiga yangicha yondashish.

- Jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishda faqat ta'lim va kadrlar tayyorlash siyosati bilan cheklanmasdan, davlat siyosatida iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy sohalarga ham e'tibor berish zarur:

**Birinchidan**, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarida mahalliy ishlab chiqarish ustuvor bo`lishini ta'minlash. Buning uchun ularga yangi texnika-texnologiyalarni qayerdan topish va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlar berish, shartnomaga asosida yetkazib berish tizimini yaratish zarur;

**Ikkinchidan**, intellektual kuchlarni texnika, uskunalar yaratishga safarbar etib, katta yoshli kishilarni ana shu texnika va texnologiyalar asosida qayta o`qitish yo`li bilan ishsizlik va yashirin ishsizlik muammolariga qarshi kurashish;

**Uchinchidan**, mafkuraviy sohada jamiyat moddiy farovonligini oshirishning asosi sanoat ishlab chiqarishidir degan tamoyilni kiritish. Sanoat sohasidagi bilimlarni targ`ib qilish orqali jamiyatda ijtimoiy ruxiyatni shakllantirish va «sanoat ixlosmandlari»ning sonini ortirish.

Globallashuv jarayonlarida mamlakat manfaatlarini himoya qilishning eng zarur sharti sanoat sohasini rivojlantirishdir. Buning uchun, ishlab chiqarish intellektual salohiyatini rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini qidirish darkor. Bu esa, O`zbekiston tashki siyosatida faol iqtisodiy va kadrlar siyosatini olib borishi bilan bog`liq bo`ladi.

–Jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishda oliy o`quv yurtlari va o`rta maxsus kasb-hunar kollejlari bilan birga keng ommaga, mustaqil xususiy ishlab chiqarishni tashkil qilishni xohlovchilar uchun qisqa o`qitish kurslarini ochishni davlat tomonidan rag`batlantirish;

–Sanoat sohasidagi tarmoq korxonalar va ularga kadrlar yetkazib beruvchi ta`lim muassasalari o`rtasidagi munosabatlarni bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslab korxonalar tomonidan talabalarga tanlov asosida stipendiyalar joriy qilishni yo`lga qo`yish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv sharoitida davlatning rivojlanishi va uning ertanggi kuni mamlakatda intellektual salohiyatning qanchalik rivojlanishiga bog`liq. Bu borada O`zbekiston qadimdan ilm-fan sivilizatdiyasi o`chog`i bo`lib, kelgan va shunday bo`lib qolishiga barcha asoslarimiz mavjud.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

### **I.RAHBARIY ADABIYOTLAR**

1. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқук ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий кадрият. - Т.: Ўзбекистон, 2005. - 48 б.
2. Каримов И.А. Эришилган ютукларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. Халқ сўзи, 2006 йил 11 феврал.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка, таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. Т.6.-Т.: «Ўзбекистон», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-бетлар.
4. Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар деб ҳисоблашар эди. Т.: «Ўзбекистон», 2005, 5-33 бетлар.
5. Каримов И.А. Жамият мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. Т.7. -Т.: «Ўзбекистон», 1999. 84-102-бетлар.
6. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. -Т.: «Ўзбекистон», 2000. 462-467-бетлар.
7. Каримов И.А. Эгали юрт эркини бермас. Т.9. -Т.: «Ўзбекистон» 2001. 70-98-бетлар.
8. Каримов И.А. «Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар» рисоласига сўз боши. Т.9. -Т.: «Ўзбекистон», 2001. 220-224-бетлар.
9. Каримов И.А. Эл-юртга ҳалол, вижданан хизмат қилиш ҳар бир раҳбарнинг муқаддас бурчи. Т.12. -Т.: «Ўзбекистон», 2004. 285-312-бетлар.
10. Каримов И.А. Конун ва адолат устуворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Т.12. -Т.: «Ўзбекистон», 2004. 313-337-бетлар.
11. Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. -Т.11. -Т.: «Ўзбекистон», 2003. - 320-бет.
12. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-құдратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлик. -Т.12. -Т.: «Ўзбекистон», 2004. - 400 б.
13. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаш-тириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишdir. -Т.: «Ўзбекистон», 2005. - 96 б.
14. Каримов И.А. Ўзбек ҳалқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. - Т. 13. -Т.: «Ўзбекистон», 2005. - 448 б.
15. Каримов И.А. Юксак маънавият-йенгилмас куч. Тошкент.: Маънавият, 2008.-1176.
16. Каримов И.А. Ўзбекистон Конституцияси - биз учун демократик тараккиёт йўлида ва фуқаролик жамиятни барпо этишда мустахкам пойdevor. “Халқ сўзи”, 2009 й. 6-декабр.
17. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalarining

qo`shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O`zbekiston”, 2016. -56 b.

18. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi / <http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarini-taminlash-yurt-tara--07-12-2016>.
19. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: “O`zbekiston”, 2017.-104 b.
20. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O`zbekiston”, 2017.-491 b.
21. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning olimlar bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi// «Xalq so`zi» gazetasi, 2016 yil 31 dekabr, – B.1.

## **II. NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O`zbekiston», 2016. 4-13-betlar.
2. O`zbekiston Prezidentining 2001 yil 18 yanvarda qabul qilingan «Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo`yicha ta`lim dasturlarini yaratish va respublika ta`lim tizimiga joriy etish to`g`risida»gi farmoyishi. «Ma`rifat», 2001 yil 20 yanvar.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli Farmoni. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017 y., 6-son,
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida" PQ-2909-sonli qarori // Xalq so`zi 2017 yil 21 apreldagi 79 (6773) soni.

## **III. O`quv-metodik va ilmiy adabiyotlar**

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: А.Кодирий номли халқ мероси нашриёти, 1993. 53-67-бетлар.
2. «Темур тузуклари». -Т.: «Адабиёт ва санъат», 1996. 22, 29-30, 72, 94-бетлар.
3. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Т.: «Шарқ» 1994. 69-74-бетлар.
4. Фитрат. Нажот йўли. -Т.: «Шарқ», 2001. 36-58-бетлар.
5. Азизхўжаев А.А. Давлатчилик ва маънавият. -Т.: «Шарқ», 1997. 19-41-бетлар.

6. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. -Т.: «Академия», 2003. 101-133-бетлар.
7. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Т.: «O`zbekiston», 2001. 173-189, 190-203-betlar.
8. Ergashev I. Nabiev E., Komilov N. va boshqa. Milliy istiqlol g`oyasi: O`zbekiston Respubliqasi Oliy ta’lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -Т.: Akademiya, 2005, 293-319-betlar.
9. Бекмуродов А. Ш. Маънавий-маърифий фаолият: устувор масалалар ва инновациялар. - Т.: ТДИУ, 2005. - 44 б.
10. Тўхлиев Н., Хақбердиев К., Эрмаматов Ш., Холматов Н. Ўзбекистон иктисадиёти асослари. - Т.: Давлат илмий нашриёти, 2006. - 280 б.
11. Убайдуллаева Р., Ата-Мирзаев О., Умарова Н. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. - Т.: Университет, 2006. - 96 б.
12. Мустакиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат // Муаллифлар: М.Абдуллаева ва бошқалар. - Т.: Шарқ, 2006. - 528 б.
13. Фуломов С. Интеллектуал салоҳият самарадорлиги сари // «Халқ сўзи» газетаси. - Тошкент, 2012йил 9 сентябр. - Б. 1-2.
14. Хайтов А. Японлар ва биз // Мулоқот.- Тошкент, 2012. -№ 3.-Б. 21-22.
15. Умаров С. Таълим тарозиси // Тафаккур. - Тошкент, 2002. - №3.
16. Таълим салоҳиятининг юксалиши // “Маърифат” газетаси. - Тошкент, 2003 йил 12 июл. - Б. 7.
17. Саифназарова Ф. Тарбия-узлуксиз жараён // Тафаккур. - Тошкент, 2012. - №4. - Б. 76-77.
18. Охунова Г. Жамият, таълим ва кадрлар // Жамият ва бошкарув. - Тошкент, 2003. - №1. - Б. 17-18.
19. Маҳкамова Н. Миллий зиёлилар шаклланиши // Мулоқот. -Тошкент, 2003. - №1. - Б. 22.
20. Минавваров С. Зиёлининг виждан иши // Тафаккур. - Тошкент, 1999. - №4. - Б. 82-83.
21. Минхожиддин Мирзо. Таълимнинг тараққиётга таъсири // "Халқ сўзи" газетаси. - Тошкент, 2012 йил 28 ноябр. - Б. 3.
22. Ибрагимов О. Мустакиллик ва кадрлар сиёсати // Мулоқот. - Тошкент, 2014. - №1.
23. Ахмедов Б. Илм-фан халқ ва мамлакатга хизмат қилсин // Мулоқот. Тошкент, 2012. - №11-12. - Б. 8-9.

#### **IV. Elektron ta’lim resurslari**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)